

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

“IJTIMOIY FANLAR ” KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Tarix fakulteti dekani

_____ dots. G`oziyev S.

“ _____ ” _____ 2012 y.

5141500 –Milliy g`oya, huquq va ma'naviyat asoslari ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

OILA VA JAMIYAT UYG'UNLIGI AYOLLARNING O'RNI
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: K.Murodova.

Ilmiy rahbar: f.f.d.prof.B.M.Ochilova

Ishni himoyaga tavsiya etaman :

f.f.d.prof.B.M.Ochilova

(ismi va familyasi)

(imzo)

BMI “Ijtimoiy fanlar ” kafedrası
yi'g'ilishi qarori bilan (qaror № 09
“05 ” 06. 2012 yil)

himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: f.f.d. prof. B. Ochilova _____

JIZZAX – 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-6
--------------------	------------

I-BOB. OILA VA JAMIYAT UYG'UNLIGINING IJTIMOIIY FALSAFIY ASOSLARI

1.1. Oila asoslari, funksiyalari va unda ayol omilining o'rni.....	7-19
1.2. Jamiyat va oila uyg'unligining ma'naviy axloqiy tamoyillari.....	20-27
1.3. Oila va jamiyat uyg'unligini ta'minlashning zaruriyati, omillari va vositalari.....	27-36

II-BOB. O'ZBEKISTONDA OILAVIY MUNOSABATLAR HAMDA FUQAROLIK JAMIYATI QURISHDA AYOLLAR FAOLLIGINING OSHIB BORISHI

2.1. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda oila mustahkamligi va ayollar faolligining huquqiy asoslari.....	37-58
2.2. "Oila va jamiyat uyg'unligi" mavzusini o'qitishning pedagogik texnologiyasi.....	58-65

XULOSA.....	66-68
--------------------	--------------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	69-71
---------------------------------------	--------------

ILOVALAR.....	72-76
----------------------	--------------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyoti yo'lidagi bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish ekan, bu albatta, jamiyat ma'naviyatini shakllantirishda ayollar faolligi bilan uzviy bog'liq. Chunki, har bir inson jamiyatda yashaydi, undagi ma'naviy hislatlar ana shu jamiyatdagi ijtimoiy mezonlar ifodasi ekani muqarrar, ya'ni, donolar aytadilarki, ayolni ulug'lagan zot ulug', ayolni ardoqlagan yurt ardoqli bo'ladi. Shu jihatdan ayollarni izzat-ikrom qilish, ulug'lash, ardoqlash millatimizga xos hususiyat va bu uzoq yillik qadriyatlarimizdan biridir.

Mustaqillikka erishgach, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar etib turadigan ayollarga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Jamiyatimizning turli sohalarida, ularning faol ishtiroki uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov qayd etganidek: “Bir qator nufuzli xalqaro institutlarning baholashicha, O'zbekiston dunyoning 125 davlati orasida xotin-qizlar uchun qulay sharoitlar yaratish va onalikni muhofaza qilish borasida yetakchi o'rinlardan birini egallab turibdi”¹.

Xotin-qizlarning oila, davlat va jamiyat qurilishdagi mavqeyini kuchaytirish, ularning xuquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha Prezidentimizning bir necha farmonlari e'lon qilindi, Vazirlar Mahkamasining qarorlari chiqdi. Bularning barchasidan ko'zlangan maqsad xotin-qizlar qo'mitalari, jamoat tashkilotlari, davlat tuzulmalarining, xotin-qizlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayot va davlat qurilishdagi faolligini oshirishdan iboratdir.

Ayollarning jamiyat va oiladagi o'rni, ijtimoiy-xuquqiy maqomi uning ijtimoiy munosabatlar jarayondagi ishtiroki bilan belgilanadi. Zero, bu xolat ayolning jamiyatdagi mavqeini yaxshilash bilan birga ularning konstitusion xuquqlarini himoya qilish zaruriyatini ifoda etadi. “2012 yil O'zbekiston Respublikasida “Mustahkam oila yili” deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan

¹ Karimov I.A. Demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz tarqkiyotining asosiy mezonidir. 19-jilt, - T.: O'zbekiston, 2011, B.124.

“Mustahkam oila yili” davlat dasturi ishlab chiqildi. “Oila sog’lom ekan – jamiyat mustahkam ekan mamlakat barqaror” degan insonparvar tamoyili asosida “Mustahkam oila yili” Davlat dasturini amalga oshirishning muhim yo’nalishlari belgilandi. Jumladan, - oila birinchi navbatda, ehtiyojmand oilalarning muammolarning hal etishda davlat va jamiyat tomonidan g’amxo’rlikni yanada kuchaytirish, ularga moddiy yordam ko’rsatish va farzandlarni tarbiyalashda ijtimoiy qo’llab quvvatlash, munosib ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, bunda oilani mustahkamlashda asosiy yukni o’z yelkasiga olgan ayollarga alohida e’tibor qaratish deb belgilab qo’yilgan.

Bu esa xotin-qizlarimizning oilada tinchlik va osoyishtalik mehr-oqibat muhitini saqlash, hayot tashvishlari va muammolarini sabr-toqat oqilalik bilan hal etish, farzandlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalash mas’uliyatini kuchaytirish, mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan tub o’zgarish va yangilanish jarayonida faol qatnashishga ham undaydi.

Bugun biz halqaro demokratik jamiyat safidan munosib o’rin egallash, hech kimdan kam bo’lmaydigan fuqarolik jamiyati barpo etishni o’z oldimizga yuksak maqsad qilib qo’ygan ekanmiz, aholimizning ongi tafakkuri, dunyoqarashini yanada kengaytirish, bu yo’lda to’siq bo’lib turgan, eskidan qolgan qoldiq va asoratlardan butunlay voz kechish, zamon talablari bilan uyg’un va hamohang bo’lib yashash muhim ahamiyat kasb etishni yaxshi anglab olishimiz lozim. “Shu borada ayollarimizga xar tomonlama munosib sharoit yaratib berish yo’lida olib borayotgan ishlarimizni ham qonuniy, ham amaliy jixatdan yanada kuchaytirish, ularning qobiliyat va iste’dodini to’la ro’yobga chiqarish, jamiyatimizdagi obro’ – e’tibori va nufuzini oshirish – bunday vazifalar faqatgina so’zda emas, kundalik hayotimizda o’z ifodasini topishi shart”.

Darhaqiqat, davlatimiz kelajagi ham, rivojlangan, mamlakatlar orasida tutgan mavqeyi va salohiyati ham, dunyo qarashi, bilimi, aql zakovati, Vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas’uliyatini teran anglashi, bugungi avlodga bog’liqdir. Shu bois yurtimizda jamiyatning asosiy tashkil etadigan, uning eng

muhim bo'g'ini bo'lgan oilaga alohida e'tibor berilayotgani bejiz emas. Zero, bilim va kasb-hunarga qiziqish, ota-onaga hurmat, do'stga sadoqat, mexr-shavqat, halollik va poklik kabi ahloqiy fazilatlar oilada shakllanadi va sayqal topadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, muqaddas qo'lyozmamiz "Avesto"da, buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida yuksak ahloqiy fazilatlarni kamol toptirishda oila asosiy omil ekani ta'kidlangan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Oila va jamiyat uyg'unligida ayolning o'rni, mavqeyi va salohiyati, bilimi, Vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas'uliyatini ijtimoiy, siyosiy tahlil etish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- birinchidan, jamiyat rivojlanishida ayolning o'rni va tarixiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatidan o'rganish;
- ikkinchidan, oila va jamiyat haqida Sharq mutaffakirlari qarashlarini tahlil etish;
- uchinchidan, islomda ayolning o'rni va qadr-qimmatini tadqiq etish;
- to'rtinchidan, oila va jamiyat uyg'unligida ayollarining huquqiy faolligini oshirish masalalarini yoritish;
- beshinchidan, mustaqillik yillarida jamiyatning turli sohalarida ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish muammolarini tahlil etish;
- oltinchidan, jamiyatda ayol huquqi va erkinliklarini hal qilishda O'zbekiston Respublikasi qonunlari va amalga oshirilayotgan ishlarini ko'rsatib berish.

BMI (tadqiqot)ning obyekti Oila va jamiyat uyg'unligida ayollar faolligining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sohalar bilan bog'liqligi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti ayol – jamiyat tayanchi uning taraqqiyoti mezonini ekanligining tahlili.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari: Mazkur ishni bajarish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning asarlarida bayon

etilgan ayollarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va roli, ijtimoiy-siyosiy faolligi to'g'risidagi fikrlari, O'zbekiston Respublikasi Kodekslari, Qonunlari, shuningdek, respublikamiz tadqiqotchilarining oila va jamiyat, ayollarning mavqeyi va haq-huquqlariga dahldor izlanishlari ilmiy-nazariy hamda uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati;

- ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fan sohalarida "Oila va jamiyat uyg'unligida ayolning o'rni" mavzusi bo'yicha yangi dasturiy loyihani yaratish, har bir o'quvchida ushbu masalalarni hal qilish to'g'risidagi fikrlarni vujudga keltirishda foydalanish;

- umumta'lim maktablarida akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida va Oliy o'quv yurtlarida "oila va jamiyat uyg'unligida ayolning o'rni" mavzusi bo'yicha dars soatlari yetarli miqdorda ajratilsa va kerakli tartibda o'tilsa, ayni muddao bo'lar edi;

- "Oila va jamiyat uyg'unligida ayolning o'rni" mavzusi bo'yicha uzluksiz ta'lim muassasalari axborot resurs ta'minotini boyitish.

BMI tuzilishi va hajmi BMI kirish, beshta bo'limni o'z ichiga olgan ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib umumiy hajmi 76 bet.

I – BOB. OILA VA JAMIYAT UYG'UNLIGINING IJTIMOIIY FALSAFIY ASOSLARI

1.1. Oila asoslari, funksiyalari va unda ayol omilining o'rni

Jamiyatni oilasiz, oilani esa ayolsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun har bir alohida davlatdagi mavjud ijtimoiy – iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar ommaviy munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Oila – kishilarning tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, uy-ro'zg'orni boshqarish), huquqiy (masalan, nikohni fuqarolik holatlarida qayd etish), ma'naviy (er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi sevgi, mehr-muhabbat tuyg'usi va shu kabilar) munosabatlariga asoslangan birlik². Demak, **oila** – bu kishilarning nikoh yoki qon-qardoshlik, urug' yoki qiz olishga asoslangan ijtimoiy mushtarakligining boshlang'ich formasidir. Dunyoda yuz beradigan har qanday o'zgarishlar, xoh u iqtisodiyotda, xoh ma'naviy-siyosiy sohalarda bo'lmasin, o'z ta'sirini dastavval oila muhitida namoyon etadi.

Oila – er –xotinlik ittifoqiga qarindoshlik aloqalariga umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota – ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar, bobo-buvilar va boshqa qarindoshlar orasidagi munosabatlariga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi davlat, davlat qudratining manbasi hisoblanadi.

Oila inson xayotining asosini tashkil etadi. Shuning uchun oila ijtimoiy institut sifatida jamiyat bilan birga paydo bo'lgan deyish mumkin. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Qadimdan jamiyat taraqqiyoti sifati va salmog'i oilalardagi holat bilan belgilangan. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: “Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi”³, Darhaqiqat, oila inson uchun muqaddas dargox bo'lib, u insonlarning tabiiy

² Abdullayev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: “Sharq”, 2006, B.297-298.

³ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari...-T.: O'zbekiston, 1998, B.52.

iqtisodiy, ijtimoiy , huquqiy va ma'naviy munosabatlari zamirida yuzaga keladi. Oila taqdiri uning rasmiy tus olish laxzasidan boshlanadi, shundagina er -xotin oldida, xotin er oldida, ota-ona sifatida farzandlari qavmu - qarindoshlar, mahalla, qisqasi, jamiyat oilada, o'z navbatida, farzandlari ham o'z ota-onalari va el-yurt oldida mas'uliyat seadilar va burchi ekanliklarini his qilib yashaydilar⁴.

Oila jamiyat ichidagi kishilar birligi sifatida shu jamiyat nizomlari asosida yashasada, oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hosidadir, uning ichki ishlari unda o'z shaxsiy yumushlari hisoblanadi, oila ishlariga birovning aralashuviga haqqi yo'q, shu ma'noda oila jamiyatning muqaddas va dahlsiz uyidir yoxud boshqacha qilib obrazli ifodalanganda oila mustaqil muhtoriyatdan iborat saltanatdir. Bu saltanatning podshoxi – ota, vaziri – ona. Oila jamiyat tarkibida ekan oilaviy munosabatlar ham shu jamiyatga manzur ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy – mafkuraviy va ma'naviy ahloqiy munosabatlar zamirida va ta'sirida kechadi, shu jarayonga hos o'zgarishlar asosida o'zgarib takomillashib boraveradi.

Muqaddas zaminimizda qadimdan milliy urf – odat va an'analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda ularni jismonan barkamol, ma'nan yetuk, mehr oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda oila muhiti muhim o'rin egallab kelgan.

Oila mustaqil ijtimoiy institut bo'lib shakllanganidan boshlab, to istiqlool davrimizgacha ko'p qirrali va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Har bir tarixiy davrda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari hilma-xil mazmun bilan boyib bordi hamda oila davrning chigalli sinovlaridan omon o'tib, jamiyatning negizi sifatidagi xususiyatini saqlab qoldi. Oilaning jamiyatdagi muhim ijtimoiy institut sifatidagi o'rni xususida mutafakkirlarimiz ibratli nuqtai-nazarlar bayon etishgan.

Xususan bu borada, ya'ni oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Mineralogiya”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “O'tgan avlodlar obidalari”, Abu Ali ibn Sinoning “Axloq”, “Axloq fani”, “Oila xo'jaligi”, Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” va “Mahbub-ul qulub” asarlarida o'z ifodasini topgan.

⁴ Safarov O. M.Maxmudov .Oila ma'naviyati .- T.,2009,B.19.

Beruniy qarashlariga ko'ra hech bir xalq oila, nikoh munosabatlaridan xoli emas, oila qurish hamma millat va xalq uchun tabiiy hol. Hindistonda yoshlarni o'spirinlik vaqtida uylantiradilar. Er bilan xotin o'rtasini o'limdan boshqa hech nima ayira olmaydi, hindlarda taloq qilish yo'q.

XX asr boshlaridagi milliy ozodlik kurashchilari bo'lgan jadidlar oila instituti orqali jamiyatni isloh qilish uchun astoydil kirishganlar.

Jadidlar harakatining yirik nazariyotchisi Fitrat o'zi yashagan davr hayotning barcha sohalarida chuqur inqirozga yuz tutganligi tufayli u xonliklarning ayanchli ahvoli, ularning umumjahon jarayonlaridan ancha orqada qolganligi, ma'naviy qashshoqlanish yuz berganligi haqida kuyinib yozadi. Bu tasodifiy emas edi. Negaki o'tgan asrning boshida, ya'ni Fitrat yashagan davrda sharq oilalariga g'arb turmush tarzi singdirila boshlagan edi. U o'zining "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" asarida oila asosini to'g'ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, malakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi"⁵, deb yozadi u mazkur asarda.

Fitrat o'z fikrini davom ettirib, "Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi"⁶, deb yozadi.

Muallif oilaviy hayot o'z qonun va qoidalariga ega ekanligini, bu qonunlarga rioya qilish orqaligina odamlarni jaholatdan qutqarish mumkinligini bayon etadi.

Oila institutining barqarorligi jamiyatning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazadi G'arb olimlari tadqiqotlarida oilaning inqirozi xususidagi nuqtai-nazarlar keng bayon etilmoqda. Xususan, 1859 yilda "Boston Kuaterli Revyu" jurnali shunday deb yozgan edi: "Eski ma'nodagi oila hayotimizdan yo'qolmoqda va bu nafaqat institutlarimizning erkin xarakteriga xavf ostida qoldiradi". Bunday fikrlar

⁵ Abdurauf Fitrat. Oila. T.: Ma'naviyat, 1998, B.8.

⁶ Abdurauf Fitrat. Oila. T.: Ma'naviyat, 1998, B.12.

ko'pgina G'arb mamlakatlari bo'ylab aks-sado berib o'tdi. 1980 yilda Britaniyada konservatorlar partiyasi oila tushunchasini siyosiy jihatdan muhokama qildi. 1986 yilda Angliyada bosh vazir lavozimida ishlagan Margaret Tetcher konservatorlar partiyasi konferensiyasida: "Bizning siyosatimiz oiladan, uning erkinligidan va uning xotirjamligidan boshlanadi"⁷ dedi. Boshqa tomondan, oilaning tanqidchilari oila institutining tushkunligini va hatto bora-bora yo'qolib ketishini bashorat qiladilar.

Oilaning yo'qolishi to'g'risida hali asoslanmagan holda shunchalik ko'p gapirildiki, bunday umumiy mulohazalarga tanqidiy yondoshish lozim⁸.

Tabiiyki, oila instituti bugungi kunda fundamental o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ammo, G'arb dunyosida yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni o'z holicha Sharq olamiga, xususan O'zbekiston turmush tarziga aynan ko'chirib talqin etish to'g'ri emasdir.

Oilani mustahkamlash dunyo miqyosida bosh masala darajasiga ko'tarilgan muammolardan biridir. Oilalar ahilligi va mustahkamligiga erishish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1993 yil 20 sentabrdagi yig'ilishida 15 mayni har yili xalqaro oila kuni sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi. Shundan buyon butun dunyoda, jumladan yurtimizda hali xalqaro oila kuni keng nishonlanib kelinadi.

O'tgan yillar mobaynida yurtimizda oila tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, jamiyatda tutgan o'rnini masalalariga alohida e'tibor qaratilib, barcha huquqiy asoslar yaratilganligini ta'kidlash lozim. Ayniqsa, ayollar va bolalar manfaatlarini, salomatligini himoya qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Konstitusiyamizning 14-bobida ham oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi, jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish qat'iy belgilab qo'yilgan. Oila kodeksi va boshqa qoidalar orqali yosh va ko'p bolali ayollarni ishga qabul qilishda imtiyozlar belgilangan. Oila tarixiy kategoriya. Uning shakl va

⁷ Qarang: Entoni Giddens. Sosiologiya: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma, Ilmiy muharrirlar: A.Begmatov va M.Bekmurodov, - T.: Sharq, 2002, B.459.

⁸ Qarang: Entoni Giddens. Sosiologiya: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma, Ilmiy muharrirlar: A.Begmatov va M.Bekmurodov, - T.: Sharq, 2002, B.459.

funksiyalari mavjud ijtimoiy munosabatlar harakteri shuningdek, jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasiga bog'liq. Ayni vaqtda oila jamiyat hayotiga ham kuchli ta'sir etib, qator funksiyalarni ya'ni bola tug'ish uy ro'zg'orda mehnat qilish, xo'jalik yuritish o'z a'zolarining jismoniy extiyojlarini qondirish, yosh avlodni tarbiyalash, ma'naviy va ahloqiy – estetik kamolotiga ta'sir ko'rsatish bajariladi.

Oila jamiyat, davlatning eng muhim hujayrasi, zarrasi, bo'g'ini. Oilada uch jihatni: nikoh, oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni hamda bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi. Oila poklik va soflik, ikki tomonlama muhabbat, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Oila mustahkam, tinch, farovon sog'lom bo'lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Uning mustahkamligi oiladagi tinchlik – xotirjamlik, bir- biriga bo'lgan samimiy munosabat, oila a'zolarining axloqiy tarbiyasiga bog'lik. Ma'lumki, xulq – odob inson ma'naviy qiyofasini ifoda etadi. Oila xulq – odob qadriyatlarni shakllantirishdagi asosiy me'zoni hisoblanadi. Bu jarayonda oila va ayolning uyg'unlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Oila insoniyat uzluksizligi hamda qadriyatlar, urf – odat va an'analarini, qolaversa, butun bir xalq madaniy, ma'naviy me'rosini avloddan – avlodga o'tishini ta'minlovchi omildir.

Ayolning oiladagi o'rni mustahkam bo'lsa, jamiyatdagi mavqei yuqori bo'ladi. Ayollar avvalo ona va oila bekasidir. Oila esa kishilik jamiyatining poydevoridir.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov oila haqida gapirib “avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf – odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishingiz darkor”⁹. Sharqda qadim –qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Zero, oila farovonligi milliy farovonlik asosidadir.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, mehr oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan deb ta'kidlaydi.

⁹ Karimov I.A.Oila farovonligi – davlat farovonligi //Xavssizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida.T.6.T.,1998.400b.

Jamiyat hayotida ijtimoiy faol bo'lgan ayol oilada ham o'z o'rni va nufuziga ega bo'ladi. Ayol jamiyatdagina emas oilada ham ibrat namunasiga aylanadi. Uning oilada farzand tarbiyasidek muhim vazifalarni bajarish jarayonida o'zidagi barcha ahloqiy va ma'naviy jihatlarni farzandiga singdiradi. Faol ayol ma'rifatli bo'lganligi uchun farzandlarga zukkolik, idroklilik, bilimlilik, zehnlilik xislatlarini tarbiyalaydi. Jamiyatning siyosiy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarini yaxshi tushunib etgan faol ayol o'z farzadlariga siyosiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etish xususiyatini shakllantiradi. U oilada tarbiya berish jarayonida sobitlik, qat'iyatlilik va jamiyatdagi barcha voqea hodisalarga o'zini mustaqil fikrini bildira oluvchi, ma'naviy dunyoqarashi yuksak bo'lgan shaxsni yetishtiradi. Jamiyat hayotida faol bo'lgan ayol oilada o'z farzandlarini bugungi kun imkoniyatlarigagina emas, balki ertangi kun ehtiyojlariga tayanib tarbiyalaydi.

Vatanga ota – onaga sodiqlik va fidoyililik o'z – o'zidan paydo bo'lmaydi. Bular zahirida yoshlarga oilada beriladigan tarbiya yotadi. Oilada singdirilgan tarbiya Vatanga muhabbat mehr oqibat o'zaro hurmat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning 70 foizi ona tarbiyasi orqali singdirilishi esa, allaqachon isbotlangan. Ayol – dunyoda eng aziz inson. Barcha yaxshi fazilatlarimiz bizga eng qimmatli hayotini baxsh etgan onadandir. Onalik mehri, tinimsiz mehnati, sabr – toqat, tashvishlari hayotimizning birinchi kundan boshlab bizni qamrab oladi. Mashhur pedagog Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” kitobida: “Tarbiya kimlar qilir? Qanday qilunur?” degan savolga shunday javob beradi: “Birinchi uy tarbiyasi, bu esa ona vazifasidir¹⁰.

Shunday ekan, ayol – hayot boshi, farzand ijodkori, Ayol – inson tafakkurining gulshani, fazlu kamolotining mexriboni.

Buyuk muqaddas Imom Buxoriy: “Farzandlarni diqqat – e'tibor bilan tarbiya qiling. Fazilat, odob va axloq o'rgatib, xulqlarini go'zallashtirib, ust – boshlaridan ziyoda aql – idroklarini tarbiya qiling” deydi. Demak avvalo ayol farzandiga ana shu go'zal xulqni o'rgatadi.

¹⁰ Sobirova D. Ayollarning barkamol avladni tarbiyalashdagi o'rni.//Tarbiya,2008,6-son.B.14.

Oila a'zolarining har birida iymon, e'tiqod, ma'suliyat, mehr – shavqat, iroda, o'z – o'zini anglash, qadr –qimmat, ishonch, his – tuyg'u, haqgo'ylik, saxiylik, kamtarlik, to'g'rilik, odillik, komillik kabi insoniy sifatlarning shakllanishi ularning yuksak ma'naviyatli ekanligini namoyon etadi. Albatta bu sifatlarni kamol toptirishda ibrat, namuna, tushuntirish, rag'batlantirish kabi tarbiya metodlaridan foydalanish o'z samarasini beradi. Buning natijasida oila mustahkam, tinch va totuv bo'lsa, unda tarbiyalanayotgan yosh avlod ham ma'naviy jihatdan yetuk, sog'lom, mustaqil fikrli komil inson bo'lib voyaga yetadi. Ma'naviy yetuk farzadlar tarbiyalashda ayolning o'rni beqiyosdir. Ayollar turmushda tejamkorlik o'quvli bo'lishi bilan birga, biron bir hunarlari bilan oila iqtisodiga hissa qo'shishgan. **Erkakni oilaning ustuni, ayolni ostonasi deydilar. Ostona pokiza bo'lsa, ustuni baquvvat bo'ldi. Donishmadlarimiz** fikricha, bolalarga tarbiya beradigan ona ham ilimli, ham tarbiyali bo'lmog'i lozim. Xotin uy bekasi sifatida oilaning barcha yumushlariga ma'sul xonadonning osoyishtaligi, ro'zg'ordagi tartib – intizom, oila a'zolarining umumboqiyiligi, tinch – totuvlik, ko'proq fayzli hayot ayolga bog'liq. Ayol oila tinchligining tarozisi, oilada ayolning sadoqati, shirin muomalasi, ish bilganligi qizlar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Ayolning mehmon kutish, taom tayyorlash, muomala va kiyinish madaniyati, bola tarbiyalashdagi va ma'naviy – madaniy savodxonligi oila uchun dorilfunun vazifasini bajaradi¹¹.

Jamiyat, tabiat qonun – qoidalari asosida barpo etilgan oilaning o'ziga xos bir qator vazifalari bo'lib, farzand ko'rish, avlodlar davomiyligini, yer yuzida insoniyatning tarixiy taraqqiyotini taminlashga hissa qo'shishning uning asosiy vazifalaridan sanaladi.

Oila kichik bir jamiyatning barpo bo'lishi uchun asosdir. Shuning uchun oilalari mustahkam, barqaror, ma'naviy va iqtisodiy jihatdan yuksak davlat, mamlakatning ham kelajagi buyuk bo'ladi.

¹¹ Xalilova M. Oila va jamiyat // Ta'lim tizimida ijtimoiy – gumanitar fanlar. 2008,4 – son,B-164.

Oilaning yana bir o'ziga xos xususiyati¹², bu o'zbek oilalarning ko'p bo'g'inligidadir. Ko'pgina hollarda qaynona va qaynota, o'g'il va kelin, qaynota, uka va qaynisingil, opa, nevaralar birlikda yashashadi. Ular bu oila xos o'zaro hurmat, mehr-oqibat, hamkorlik rishtalarini mustahkamlashda va shu kabi ahloqiy qadryatlarning keyingi avlodlarga yetkazishda muhim o'rin tutadi.

O'zbek oilalarga hos yana boshqa harakterli hususiyatlari ham mavjud. Ular uzoq yillar davomida shakllanib, qadriyat darjasiga ko'tarilgan va bugungi kunda ham o'z qimmatini saqlab qolmoqda. Ya'ni bolajonlik, serfarzandlilik, mehnat taqsimotining qat'iyligi, oila buyudjetining ota-ona tomonidan boshqarilishi, kichiklarning kattalarga izzat – ikromi, bo'ysinishi oilada erkakning muhim o'rin tutishi ayollarga nisbatan hurmat, ularni avaylab-asrash hissining kuchliligi, oila g'ururi, sha'nini himoya qilish uning har bir a'zosi uchun burchga aylanib qolganligi, tug'ilib o'sgan joyiga alohida mehr – muxabbat tuyg'usining zo'rliigi va boshqalardan iborat.

Oilaning har tomonlama mustahkamligi ayolga bog'liq bo'lsa uning kelajagi uchun yoshlar mas'uldir. Shuning uchun ham yurtboshimiz ayollar va yoshlarning jamiyat hayotidagi nufuzini oshirish, ularning turmushini yaxshilash uchun oilada, jamiyatda moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratish, ayollar tadbirkorligini qo'llab – quvvatlash ular mehnatini yengillashtirish salomatligini mustahkamlash, ilmiy, ma'naviy-madaniy saviyasini yuksaltirish, jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda ularning imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlaridan samarali foydalanish, farzand tarbiyasidagi ma'suliyatini oshirish chora - tadbirlarini belgilash va amalga oshirish masalasiga jamiyatning diqqat – e'tiborini qaratmoqda.

Bunday g'amhurlikka javoban ayollardan jamiyat taraqqiyoti yo'lida fidoyilik, ma'naviy va jismoniy barkamollik, oilasiga sadoqat, tadbirkorlik, tashabbuskorlik, xar tomonlama namuna bo'lish talab etiladi. Chunki savodxon fidokor ayolgina yuqori bilim, millat, Vatan taqdiri uchun fidoyi farzandlarni tarbiyalay oladi.

¹² Xalimova M. Oila va jamiyat // Ta'lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar. 2008, 4-son ,B-163

Oilada amalga oshiriladigan tarbiyaning mazmuni o'z ota-onasidan, oilasi ajdodlari, tug'ilib o'sgan o'lkasi, Vatani, millati, xalqi, tili, an'alaridan g'ururlanish xissini uyg'unlashtirishdan iboratdir. Xullas, insonning dastlab oila sharoitida shakllanib etiladigan barkamol ma'naviyati yuksak ma'naviyati jamiyat barpo etishda muhim rol o'ynaydi. Prezidentimiz va hukumatimizning ota-ona, tarbiyachi-murabiiylar oldiga qo'yadigan talabi han aynan shundan iborat.

Ayol-ona, ayol-tarbiyachi, ayol-murabbiy. Ana shu ezgu hislatlarni bir vujudga mujasamlashtirilganligi tarbiyalaydi. Har bir davrning o'z ziyoli ayollari bor bo'lganligi uchun ham insoniyat ham insoniyat ma'naviyat va ma'rifatdan bebahra qolmagan. Aynan ta'lim tarbiya tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biri inson dunyoqarashini shakllantirishdir. Hozirda oliy va o'rta maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislarning har ikkinchisi ayoldir. Ilmiy xodimlarning 37 foizi, fan doktorlarning 11 foizi, fan nomzodlarining 26 foizini xotin – qizlar tashkil qiladi. O'zbekistonda ayollarning ma'lumotlilik darajasi rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan yuqori. O'zbekiston xalq xo'jaligining turli sohalarida qariyb 2 mingdan oshiq xotin – qizlar faoliyat yuritmoqda. Ayollarning 8 mingga yaqini oliy va o'rta maxsus bilim darajasiga egadir. Keyingi 10 yillik ma'lumotlariga qaraganda 85-90 foiz ayol fan texnika taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Qaysi kasb korni olmaylik har birida nufuzli va taniqli ayolni nomini uchratish mumkin. Bunga o'z mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha nomzodlik va doktorlik ilmiy ishlarini himoya qilgan ayollargina emas jamiyatdagi barcha soxalarida o'z faoliyatini yuritayotgan xotin-qizlar kiradi. Sababi oilaviy tashvishlardan vaqt orttirib ilmiy ish bilan mashg'ul bo'lishda ijtimoiy jamoaviy vazifalarni bajarishga yoki o'z kasbi bo'yicha yetuk mutaxassis ilg'or, o'z ishining ustasi bo'lishga harakat qilishining o'zi har bir ayol kishi uchun sharaftir. Biz kelajagi buyuk davlar qurish borasida, eng avvalo, yosh avlodga tayanamiz. Yurtboshimiz takidlaganidek, barkamol avlod orzusini ro'yobga chiqarishda, ularni fidoyi, Vatanga sadoqatli, yoshlar qilib tarbiyalash sharafli burch ekanligini har bir o'zbek ayoli his etadi. Shu sababli ham 1999-yil "Ayollar yili", 2000-yil "Sog'lom avlod yili", 2001-yil "Ona va bola yili", 2010-yil "Barkamol avlod yili",

2012-yil “Mustahkam oila yili” yili deb atalgani bejiz emas. Sababi sogʻlom avlod sogʻlom jamiyat asosidir. Muxtasar aytganda oila sogʻlom boʻlsagina – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan mamlakat barqarordir.

Bugungi kunda oʻzbek ayolini dunyo tanimoqda va tan olmoqda. Ayollarimizni barcha sohalarida qilayotgan mehnatlari Vatanimiz taraqqiyotiga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Jamiyatning siyosiy, maʼnaviy iqtisodiy rivojlanishida ayollarning qobiliyati, bilim imkoniyatlaridan oʻrinli foydalanilsa, yanada yaxshi natijalarga erishiladi. Bu haqiqatni hozirda hayotning oʻzi tasdiqlamoqda.

Yurtboshimiz taʼkidlaganidek, “chindan ham, ayollarimizning oilada tutgan oʻrni beqiyos. Oqila, goʻzal ayollar oʻzlarining gʻamxoʻrligi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar”¹³.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida oilaviy munosabatlar rivojiga jamiyat, jamoatchilik taʼsirini oʻtkazish, ularni boshqarish zarurati kuchayadi. Bu zarurat natijasida nikoh bilan bogʻliq munosabatlar kelib chiqqan. Nikoh oila qurayotgan ikki yosh oʻrtasidagi munosabatlarni davlat, jamiyat tomonidan muayyan ahloqiy, huquqiy mezonlar asosida boshqarish zarurati natijasida vujudga kelgan marosimdir. Oila mustahkam boʻlmasa jamiyat ham mustahkam boʻlmaydi. Shu sababli ham barcha davrlarda ham oila mustahkamligi jamiyat barqarorligining muhim sharti deb qaralgan. Mashxoʻr mutafakkir Rizouddin Ibn Faxruddin oilaning jamiyat hayoti va taraqqiyoti qoʻyidagi fikrlarni aytgan edi: “Insonlar dini – dunyolarini tuzatmoq matlub boʻlsa, eng avvalo goʻzal hulqqa ega boʻlmoq ila oilalarni tuzatingiz! Oilalar tuzatilgandan soʻng ham din, ham dunyo tuzaladi”¹⁴.

Oilaning mohiyati qoʻyidagilarda koʻrinadi:

- Oila ikki jismga mansub boʻlgan yoshlar balogʻatga yetib birlashuvi, tabiiy ehtiyoji, muayyan anʼanalar, axloqiy qadriyatlar, huquqiy mezonlarga tayanib birga qurishdir.

¹³ Karimov I.A. Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz. - T.: Oʻzbekiston, 1999, B.225.

¹⁴ Sharq yulduzi 1992, 10 son B.84

- Oila insonlarga xos bo'lmagan ahloqiy qadriyatlar o'zaro xurmat, ishonch muxabbat, hamkorlik hamdardlik tuyg'ularining kundalik turmushda namoyon bo'lishidir. Oilaviy munosabatlarda tabiiy ehtiyojdan ko'ra ijtimoiy, ma'naviy oilalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

- Oilada bolalar tarbiyasi katta ahamiyatga ega. Bolalar aqlli, odobli, mehnatsevar, halol, imonli insofli bo'lishida ota-onaga emas, balki birinchi navbatda butun jamiyat manfaatdordir. Chunki, jamiyat taraqqiyotini, insoniyatning yorqin istiqbolini ma'naviy yetuk, jismoniy sog'lom yoshlargina ta'minlay oladi.

- Oilada kishilarning qarindosh-urug'likka asoslangan munosabatlar shakllanadi. Bu ham insoniyat uchun nihoyatda muhimdir. Qarindosh –urug'lik bilan bog'liq munosabatlar jamiyat hayoti va taraqqiyotida katta o'rin tutadi. Qarindosh urug'likni anglash, mustahkamlash bilan bog'liq an'analar qadriyatlardan biri hisoblanadi"¹⁵.

Oilaning jamiyat uchun muhimligi inson ma'naviy kamolotidagi o'ziga xos, betakror maktab ekanligidadir. Shu sababli ham barcha davrlarda oila barqarorligi, undagi ma'naviy muhit, jamiyat jamoatchilik e'tiborida bo'lgan. Barcha davlatlar, dinlar, ijtimoiy –siyosiy kuchlar, jamoalar bu muammoni e'tibordan chetda qoldirmaganlar.

Davlat oilaning mustahkamlanishi, uning moddiy ta'minoti va ma'naviy holati, er va xotin farzandlar bilan ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish bilan muammolarni hal qilishni o'z zimmasiga oladi.

Zero, oilaning paydo bo'lishi kishilik tarixida o'ziga xos burilish nuqtasi bo'lgan, madaniy taraqqiyot yo'lini boshlab bergan. U o'z rivoji jarayonida jamiyatni:

birinchidan, jamoa bo'lib yashash tarzi ijtimoiy munosabatlarning yuqori sifat bosqichiga ko'tardi;

ikkinchidan, nasl – nasab, ota – ona, o'g'il – qiz avlodlararo, shaxslararo munosabatlar, qadriyatlar paydo bo'ldi;

¹⁵ Yusupov E., O' Yusupov. Oila – ma'naviyat bulog'i. Toshkent, 2003, B.21-22

uchinchidan, ro'zg'or tushunchasi, xususiy mulkchilikning ilk kurtaklari, oilaviy, shaxsiy manfaatdorlik vujudga keldi;

to'rtinchidan, oila bo'lajak davlatning o'ziga xos bosh bo'g'iniga aylandi;

beshinchidan, ta'lim – tarbiya asoslari ham aynan oiladan boshlangan.

Oilaning funksiyalari, asosan quyidagilardan iborat: 1. Avlodni davom ettirish. 2. Bolalar to'g'risida g'amxo'rlik. 3. Iqtisodiy funksiya yoki uy-xo'jalik ishlarini yuritish. 4. Qariyalar to'g'risida g'amxo'rlik. 5. Burch va majburiyatlarni his qilish. 6. Muomala talablarini qondirish. 7. Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish.

Jamiyatda har bir oilaning to'rtta buyuk ijtimoiy vazifasi bor:

1. U jamiyatni, davlatni tashkil qiluvchi odamlarni “yetishtirib” beradigan asosiy demografik hujayra.

2. Oila – biz kundalik mehnatga sarflagan kuchimizni qayta tiklash uchun xizmat qiladigan yagona maskan.

3. Oila jamiyat uchun “yetishtiradigan” odamlariga tarbiya beruvchi asosiy maktab. Aynan oilada yoshligidan boshlab, har bir insonning negizi shakllanadi, u yaxshi yoki yomon, baxtli yoki baxtsiz bo'lishiga shu yerda asos solinadi.

4. Odam faqat oiladan haqiqiy ma'naviy va ruhiy ozuqa oladi, inson bo'lishni o'rganadi, ya'ni o'zgani qayg'urushini, qadrlashni, o'zga uchun yashashni o'rganadi – bularning hammasini ota-onasi bir-biriga qiladigan muomalasi, munosabatidan ibrat oladi.

Har bir oila bu 4 ta vazifani bajarishi esa asosan ayol kishiga bog'liq, chunki faqat ayol hayot davomchisidir, faqat ayol har qanday kulbadan uy yaratishga qodir, faqat ayol va ona mehr-muhabbati insonni va uning baxtini yaratadi.

Yevropaliklarda shunday naql bor: “Koinotni erkaklar boshqaradi, erkaklarni esa xotinlar”. O'z erini qanday boshqarishni bilmagan xotin “koinotni” boshqarishga o'tadi va shu bilan o'z tabiatiga qarshi chiqadi. Tabiat esa unga qarshi chiqqanlarni kechirmaydi, bundaylarning kelajagi bo'lmaydi.

Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari- inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali utkazishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy,

iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi, shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi

Ayollarning ijtimoiy hayotdagi maqomini oshirishga qaratilgan barcha imkoniyat va sa'y – harakatlarni birlashtirish, ularni turmush sharoitlarini yaxshilash orqali jamiyatning yangilanishida ayollar ishtirokini kuchaytirish uchun sharoit yaratish ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Millati, xalqi urf – odatlarini, an'analarini, umuminsoniy qadriyatlarini o'zlashtiradi, dunyoqarashi, mafkurasi shakllanadi. Shu sababli oila jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy – axloqiy tayanchi hisoblanadi.

Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asirlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab – ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi.

Falsafiy jihatdan oila jamiyatning negizi, milliy an'analar, urf – odatlar, milliy ma'naviyat sarchashmasi sifatida o'tmishi va bugungi kuni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ifodalaydi.

Oila tarixan ijtimoiy noyob hodisa. Ijtimoiy bo'hronlar, qiyinchiliklardan insoniyatni omon saqlab kelayotgan tiriklik bulog'i, hayot javohiridir.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatni rivojlantirishda oilaning funksional xususiyatlari va ayollarning faolligi oshib borishi kelajak uchun ham ahamiyati juda kattadir.

1.2. Jamiyat va oila uyg'unligining ma'naviy ahloqiy tamoyillari

Ma'lumki, insonning taqdiri kelajak hayotidagi yutuqlari yoki muvoffaqiyatsizligi, baxti yoki baxtsizligi, kasb tanlashi, xattoki kayfiyati, uning oilaviy muxiti bilan bog'liqdir. Oilaning taqdiri esa insonning o'ziga bog'liq. Jamiyatning ma'naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog'liqligi azaliy haqiqat. Chunki, oila jamiyatning ijtimoiy-manaviy bo'g'ini, kichik bir vakili bo'lib, aynan oila zaminida xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Agar oilada

tartib-intizom bo'lsa, uning a'zolari shu xislatlari xizmat jarayoniga ko'chiradi va ijtimoiy mehnat faoliyatlarida qo'llaydilar. Bu esa ularning o'z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarilishiga sabab bo'ladi. Oila bu odob-u axloq, xushmuomalalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo'lishi insonlar o'rtasidagi munosabat va muloqatlarda o'ta muhim va shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishiga alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oila o'z farzandini Vatanga muxabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu xis-tuyg'u unga butun xayoti davomida hamrox bo'ladi.

Jamiyat va oila uyg'unligining ma'naviy-ahloqiy qiyofasi ajdodlarimizdan birga o'tgan bilim va tajriba, madaniy qadriyatlar asosida va zamondoshlarimiz erishgan yutuqlari negizida barpo bo'ladi. Bizning davrimiz oilalarimizga zamonaviy texnologiya va jaxonning yuksak taraqqiyotiga erishgan rivojlangan davlatlarida yuz berayotgan o'zgarishlar haqidagi tasavvur va qarashlar hamda axborotlarning kirib kelayotganligi bilan "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda xech shubhasiz oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi"¹⁶

Oila asosini nikoh munosabatlari tashkil qiladi. Nikoh – bu tarixan vujudga kelgan er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-axloqiy shaklidir. Nikoh orqali jamiyat er-xotinning o'zaro jinsiy hayotini tartibga soladi va ularning oiladagi huquq-burchlarini qonunlashtiradi. Shu bilan birga, oila nikohga nisbatan yanada murakkabroq bo'lib, nafaqat er-xotinni, balki ularning farzandlarini va shu oila tarkibiga kiruvchi qarindoshlarni ham o'z ichiga oladi.

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil xodisa bo'lib, oilaning ichki ishlariga hеч kim huda bexuda aralashishiga xaqli emas. Shu sababli oila muqaddas va daxlsiz xisoblanadi. Ramziy qilib aytsak, oila o'ziga xos kichik bir miqdor davlatdir. Lekin oila osmondan tushmaydi, oila jamiyat tashqarisida emas, uning tarkibidadir.

¹⁶ Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch.-T: manaviyat 2008. B.52.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushga oid urf odatlari o'zida sinovda o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga-jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi iqtisodiyoti, madaniyati va marifaatini ham belgilashga o'z tasirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Xususan, o'zbek oilalarining serildizlik, ser o'rtoqlik xususiyatlari xozir ham saqlanib turibdi. O'zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib xayotiy tajriba ortirib borishi tejamli va sarishta ro'zg'or tutishi farzandlarni odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. O'zbek oilalar o'zlarining mustahkamligi, saramjon sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi mexr-oqibatli va boshqa qadriyatlar bilan ajralib turadi.

“Oila mustaxkam, tinch, farovon, sog'lom bo'lsagina jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Uning mustahkamligi oiladagi tinchlik hotirjanlik bir-biriga bo'lgan samimiy munosabat, oila a'zolarining ahloqiy tarbiyasiga bog'liq. Oila insoniyat uzluksizligi hamda qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni, qolaversa butun bir xalq madaniy-ma'naviy merosini avloddan – avlodga o'tishini ta'minlovchi omildir. Oilaning muqqadas burchi va vazifasi nafaqat farzandni dunyoga keltirish, balki ularni yuksak manaviyatli va ma'rifatli qilib tarbiyalash, jamiyatda o'z o'rnini mustaqil topishiga shart –sharoit yaratib berishdan iboratdir”¹⁷.

Oila xalqining jamiyatning hayoti, turmushga oid urf-odatlari o'zidan sinovda o'tkazadi. O'z farzandlarini katta oqimga tayyorlashga – jamiyatga qo'shish bilan esa oila tinchlik yo'nalishlari, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham sharqda oila qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan.

¹⁷ Ma'naviyat asosiy tushunchalar izoxli lug'at. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2009, B.452.

Vatan ichidagi kichik vatan bo'lish muqaddas oila baxtini, tinchligini muqaddas burch deb bilgan haqiqiy vatanparvarlar, jonkuyar insonlarni tarbiyalash oilada boshlanishini har qadamda unutmaslik hayot haqiqatidir.

Oila maqsadi – ikki jinsning o'zaro kelishuvi asosida farzandni dunyoga keltirish hamda tabiat va jamiyatning davomiyligini ta'minlash.

Oila vazifasi – er-xotinning birgalikda xo'jalik yuritish asosida oilani ham ma'naviy ham iqtisodiy jihatdan ta'minlash hamda jamiyatga, sog'lom aqlli har tomonlama barkamol farzand tayyorlash.

Oila ijtimoiy hodisa sifatida insoniyatning ulug' kashfiyoti sanaladi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: “Sharqda qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik hamda hamjihatlikka erishiladi, binobarin mahalla yurt mustahkam bo'lsagina davlatga osiyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero oila farovonligi – milliy farovonlik asosidir.”

Shu boisdan kishilik jamiyatida oilaning paydo bo'lishi tarixini, ijtimoiy mohiyatini, axloqiy-tarbiyaviy rolini va boshqa hususiyatlarini o'rganish g'oyat maroqlidir. Bu sohada oilashunoslik ijtimoiy fanlarda alohida bir tarmoq sifatida shakillangan.

Aslida “Avesto”, “Qur'oni Karim” va muqaddas hadislarda o'z sarchashmasini olgan oilashunoslik haqidagi qarashlar Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida bir muncha rivoj topdi, ular bu masalani asosan ota-ona va farzand munosabatlari doirasida talqin qildilar¹⁸.

Har bir oilaning mustahkamligi oila a'zolarining tinch va farovon hayot kechirishi, o'zaro hurmat va izzatda yashashi bu yoshlarni kelgusi hayotga tayyorlashda muhim omildir, umuman oila insonning shaxs sifatida shakllanishida ijobiy ta'sir qiladi, yoshlar ma'naviyatini takomillashtirishga yordam beradi, millat asosini tashkil etib ikki avlodni birlashtiradi.

¹⁸ Zaxarov O. Maxmudov M. “Oila ma'naviyati” – T.:Ma'naviyat, 2009 B.6.

Oila jamiyatning muqaddas uyi, sog'lom barkamol inson tarbiyasida mas'ul eng asosiy tarbiya makonidir¹⁹.

Ammo biz sog'lom deganda faqat jismoniy jihatdan salomatligini emas balki sharqona odib axloq va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz.

Zero, milliy axloq-odob xamda umunbahariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan kishi ma'naviy boy inson bo'la oladi. Ma'naviy barkamollik esa insonning dunyoqarashi, etiqodi, ruhiyat, hulq atvor normalari, ahloq odobiga bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi.

Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Bunday kishilar mutelikda qaramlikda yashashni istamaydilar. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda oiladagi sog'lom muhit, sog'lom g'oya va mafkurani shaklantirish manbaidir deya olamiz. Bu esa I.A.Karimovning "Har qaysi inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va is'tedodini avvalo o'zi uchun oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligini, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida ega, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki uning sur'at va samarasini hatto tasavvur ham qilish oson emas",²⁰ – degan turli ma'no so'zlarda oiladagi ma'naviy ahloqiy tarbiyaning naqadar muhim ekanligini yana bir karra isbot etadi.

Oila kishilik jamiyatida insoniy oriyat va nomusni anglash, xalq va Vatanparvarlik g'oyalarini o'ziga yetakchi omilga aylantiruvchi birlik. Ota-ona mehrini, oila a'zolarining insoniy fazilat xamda sifatlarni halol qiluvchi, oila ma'naviy dunyosini o'z faoliyatida amaliyot joriy etilgan, o'zbek oilalari ma'naviyatning tarixiy asoslarini oila va jamiyat, ma'naviy ruxiyat, milliy an'analar, farzand tarbiyasining ayrim muammolarini bartaraf etishda istiqlol mafkurasi asoslarida tayangan holda amalga oshiriladigan yetuk jamoa. Oila institut mexr-muruvat me'zonlari kabi tuyg'ulari o'zida mustaxkam idrok etishga

¹⁹ Milliy istiqlol g'oyalarining amal qilish tamoyillari – T.: yangi asr avlodi, 2001, B.14.

²⁰ Barkamol avlod orzusi / Tuzuvchilar Sh.Qurbonov. H.Saidov, R.Axmedinov. -. Sharq, 1999, B.173.

chorlovchi muqqadas va ulug' dargohdir. Inson ana shu dargohda o'sadi, unadi, voyaga yetadi va jamiyatga foydasi tegadigan shaxs bo'lib shakllanadi.

Agar oila sog'lam va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Bimobarin, mahalla yurt mustahkam bo'lsagina davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Bu o'z navbatida, oilada shakllangan ma'naviy – axloqiy an'analar va shu asosida kelib chiquvchi vazifalarning nechog'liq ado qilinishiga uzviy daxldordir. Sirasini aytganda, oila ma'naviy-axloqiy muhiti o'ziga xos shakllanish tarixiga ega, u oila tarixi qadar qadimiy yo'lini bosib o'tgan.


Oiladagi ma'naviy-axloqiy muhit muhitni belgilashda er-xotinning o'z farzandlari-yu qaynona va qaynotalariga, kelin – kuyovlariga, qaynbo'yinlari-yu qo'ni-qo'shinlariga, quda andalariga munosabatlari, shuningdek, har birlarining o'z vazifalarini, burj va mas'uliyatlarini nechog'lik anglab, ado etishlari, ayniqsa, ayricha ahamiyat kasb etadi. Huddi shu jarayonda o'zbek oilalariga insonparvarlikning oliy jilolari bolalarga shavqatlilik, keksalarni hurmad qilish, farzandparvarlik yoki serfarzandlik, qo'ni-qo'shni yoki mahalla kuy bilan, demakki jamoatchilik fikri bilan hisoblashib yashash, yosh avlodni ajdodlarimiz yaratgan ezgu an'analar ruhida odobli va axloqli qilib tarbiyalash, bunda avvalo, ularda mehnatsevarlik, halolik, to'g'rilik, rostgo'ylik, kamtarlik, samimiylik, o'zgalarga hurmat, moddiy, ma'naviy boyliklarni asrab avaylash, yaratish tuyg'ularini shakllantirish muhimdir²¹.

Shu mulohazalar mantig'idan kelib chiqadigan hulosasi shuki, oila millat mintalitini shakllantiradigan va tarbiyalaydigan ishtimoiy – ruhiy hodisadir. Har bir millatning milly fazilatlarini, avvalo, xuddi shu oilada uning bunyodkorlari tomonidan farzandlarda tarbiya jarayonida shakllantiradi. Shu asosida oila xalqona milliy an'analar boqiyiligini, davrlar osha avloddan-avlodga o'tib yashashini ta'minlovchi ma'naviyat maktabiga aylandi. Qolaversa, oila – dunyoga keltirilgan yangidan- yangi farzandlarni ajdodlar yaratgan milliy an'analar ruhida tarbiyalash maktabidir. Zero o'zbek oilalarida ma'naviy – axloqiy muhitni shakllantirishda keksa avlodning shu maktab muallimlari vazifasini sharaf bilan o'tab

²¹ Safarova O, Maxmudov M. Oila ma'naviyati.-T.:Ma'naviyat 2009, B.35.

kelayotganliklari e'tiborga loyiq. Bu jarayon chuqurlashgan sayin oila ham mustahkamlana boradi, porovat oqibatda millat yoki xalqqa daxildor oila iftixori yuzaga keladi va shakillanadi (1-ilova).

1-ilova



Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, urf-odatlarimizni, an'ana, axloqiy me'yor va qoidalarni mujassam etgan, kelajak avlod tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan insonlar o'rtasida o'ziga xos munosabatlar shakllanadigan ijtimoiy makondir. Undagi o'zaro munosabatlar esa oila a'zolari o'rtasida muayyan ma'naviy ruhiy rishtalarning mutahkamlanishi, fe'l-atvori, qiziqishi, hatto fiziologik hususiyatlari bilan farqlanadigan insonlarning hamjihatlikda yashashini taminlaydi²².

Ma'lumki o'zbek oilasi azaldan o'ziga xos mentalititga ega bo'lib, unda turli avlod vakllari o'rtasida samimiy muomila, mexr oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus kabi tuyg'ular ustuvor o'rin tutadi. Bunday yuksak insoniy fazilatlar er-xotin, qaynona – kelin, ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ldi va sayqal topadi. Yurtboshimiz oila to'g'risida gapirib, uning jamiyat negizi deb baholab, "Bizning davlatimizni ham katta bir oila tushunish

²² Odilova M, Oilada murosayu madora // Oila, 2004, 1-son, B.64.

mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmas, oilaning barcha a'zolari o'z burjlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa yaxshi va munosib yashash mumkin emas. Oila turmushi vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oila demokratik negizlarga asos solinadi, odamlar qo'shnilarning omon ekanligi to'g'risida g'amhurlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darjadagi ma'naviy qadryat inson qalbining gavharidir"²³ Xulosa o'rinda aytish mumkinki, sog'lom turmush tarzi madaniyati, avvalo shaxsning fikrlash tarzidan kelib chiqadi, ya'ni tafakkuriga bog'liq. Inson uchun zarur bo'lgan huzur – halovat, osoyishtalik, ahilik, g'amhurlik, izzat-hurmat, qadr-qimmat, muruvvat, xullas oliyjanob insoniy tuyg'u va fazilatlar, inson kamoloti uning axloqan pokligi, jismonan salomatligi va ma'naviy yetukligidan boshlanadi.

Ayniqsa, oilaning sharqona ildizlaridan oziqlanib, hozirgi mustaqil elimiz farzandlari davr va hayot talabiga monan komil inson bo'lib etishadi. Oildan boshlangan mehr-muruvvat, oqibatlilik, tinch-osoyishtalik, insonparvarlik munosabatlari, qarindosh-urug', qo'shni-mahalla, jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlarda davom etadi, unadi, o'sadi, meva beradi.

Bular esa oildagi sog'lim muhit, ma'naviy, ruhiy va axloqiy tamoyil hamda me'yorlar asosida shakllanadi, ijtimoiy ruvoijlanish jarayonida yangi mazmun mohiyat kasb etib takomillashib boradi²⁴.

Zero, oila sog'lom, uning ma'naviy ahloqiy asosi mustahkam bo'lsa, demak jamiyatdagi axloqiy muhit ham sog'lom bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida jamiyat va oila uyg'unligidan dalolatdir.

1.3. Oila va jamiyat uyg'unligini ta'minlashning zaruriyati, omillari va vositalari

²³ Karmov I.A O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. –T.:O'zbekiston. 1992. B.22

²⁴ Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda oilaning o'rni. / Tillayeva G.Oila va inson kamoloti. –T.: Falsafa va huquq instituti nashrlik bo'limi, 2011, B.57.

Prezidentimiz Islom Karimov 1997 yil 9 dekabrda oila masalasiga bag'ishlangan maxsus farmoyishi e'lon qilindi. Farmoyishda "Oila yili" (1998 yilni) bilan bog'liqlikda Davlat dasturi ishlab chiqildi. "Oilaga e'tiborimizni, degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov,— tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab-quvvatlash bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunamiz va anglashimiz darkor". Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan 1998 yilda "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil topdi. Bu markaz oilaning ravnaqi bilan bog'liq muammolar majmuasi atroflicha ilmiy o'rganish va uslubiy tavsiyalar tayyorlash vazifasini bajarmoqda. "Sog'lom avlod Davlat dasturi"ga ko'ra oilada bola tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning 6 ta muhim jihatiga e'tibor qaratdi. Bular: 1) farzandlarimizni, ayniqsa qizlarimizni maktab partasidanoq oilaga tayyorlab borish; 2) oila qurish masalasi; 3) ayollarning homiladorlik davri; 4) ilk yoshdagi bola tarbiyasi; 5) bolaning 1 yoshdan 5-6 yoshgacha bo'lgan tarbiyasi, 6) nogiron bolalarga e'tibor masalasi.

Prezidentimiz oila va uning muammolarini jamiyat e'tiboridan chetda qoldirmaslik yo'llarini izlab topmoqda. O'zbekistondagi har bir oila davlat ravnaqi, jamiyat uchun jon kuydiradigan oila sifatida shakllanmoqda. Oila jamiyat, davlat tasarrufida faoliyat ko'rsatuvchi asosiy tayanchidir. 1998 yilda oila manfaatlarini yanada to'laroq ta'minlash uchun Prezident tomonidan Oila yili deb e'lon qilingan edi.

Demak, respublikamiz mustaqilligi oila ravnaqi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratdi. Shunday ekan har bir oila ham o'z navbatida shu jamiyat uchun uning rivojlanishi va barqarorligini ta'minlash maqsadida ish olib borishi lozim.

Oila inson hayotining asosini tashkil etadi. Shuning uchun oila ijtimoiy institut sifatida jamiyat bilan birga paydo bo'lgan deyish mumkin. Davlat ulkan bir oila bo'lsa, uning rivojlanishida, obro'-e'tiborga ega bo'lishida har bir oilaning o'рни juda katta bo'lib, davlat himoyasidadir. 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasining 16-moddasi 3-qismida „Oila jamiyatning

tabiiy va asosiy hujayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muhofaza etish huquqiga egadir”²⁵—deb belgilangan.

Insoniyat o'z taraqqiyoti davrida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsada, har bir jamiyat, shu tuzumning ijtimoiy institutlari yordamida taraqqiy etishi barchamizga ma'lum.

Ijtimoiy institutlarning asosiy vazifalaridan biri- jamiyat azolarini tarbiyalab etishtirish. Bu vazifani bajaruvchi asosiy institutlardan biri esa – oila hisoblanadi.

Jamiyatimiz oilalardan iborat ekan, uning turmush tarzini, farovonligini, tinch – totuv yashashini ta'minlash muhim. Chunki, oila tinch bo'lsa, jamiyat ham tinch bo'ladi.

Oila inson kamolatining bosh bo'g'ini ,davlat tuzimining eng muhim instituti, jamiyatimiz o'zagi negizidir.Shuning uchun ham oilani sajdagoh, Vatan ostonadan boshlanadi, deymiz. Oila jamiyat bilan bola o'rtasidagi oddiy vositachi bo'lib, o'zi kamol toptirayotgan shaxsning xulq – atvorini ko'p yillarga belgilaydi. Zero, oiladagi har qanday ruhiy va ijtimoiy muhit bolalarda shakllanadigan xulq – atvorning asosiy sabablaridan biridir. Shu tufayli ham respublikamizda oilaga ustuvor davlat siyosati darajasiga e'tibor berilmoqda. Oilaga bunday e'tibor berilganligining asosiy sababi – xalq hayoti asosan oilaviy hayot tarziga asoslanganligidadir.

Barkamol avlodni tarbiyalash va mukammalikka yetkazish oiladan boshlanishini hisobga oladigan bo'lsak, inson o'z hayotini oilasiz tasavvur qila olmaydi va aynan mana shu oila muhitida u jamiyat a'zosi sifatida kamolatga erishadi. Oilada sog'lom muhit va munosabat mavjud bo'lsa oilada ham, millat va jamiyatda ham sog'lom muhit qaror topadi²⁶.

Shuningdek, oiladan tashqari ta'lim tizimi ,mehnat jamoalarida,yuzaga keladigan sog'lom ijtimoiy munosabatlar, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlar majmuasi inson hayoti faoliyatining sog'lom ijtimoiy va ruhuy, ma'naviy va ahloqiy muhitini yuzaga keltiradi.

²⁵ Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill kitobida.-T.:Adolat,1992,B.14.

²⁶ Tillayeva G. Oila va inson kamolati.-T.:2011.B.32.

Prezidentimiz Islom Karimovning „ ... oila hayotning abadiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf – odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor “²⁷, degan so'zlari fikrimizni yana bir bor isbotlaydi.

Dunyoda yuz berayotgan har qanday o'zgarishlar, xoh u iqtisodiyotda, xoh ma'naviy – siyosiy sohalarda bo'lsin, o'z ta'sirini dastavval oila muhitida namoyon etadi.

Darhaqiqat, oila barcha islohatlar, o'zgarishlar, tanazzul va taraqqiyotlarning ibtidosi va intihosi hisoblanadi.

Mamlakatimizning porloq istiqbolini taminlashda boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda oila omiliga ham katta e'tibor qaratilayotganligi bejiz emas. Shunday ekan, oila muhitida mamlakatimizning umumiy rivojlanishiga munosib hissa qo'sha olishga qobil va tayyor shahslarni shakllantirish uchun birinchi galda nimalar qilishimiz lozim? Dastavval, o'sib kelayotgan yosh avlod ongini, shuuri, ma'naviyatida Vatan tuyg'usini mustahkam qaror toptirish ishi xalqimiz uchun taqdirilomon vazifa sanaladi. Negaki, qadim – qadimdan oila – muqaddas Vatan sanaladi. Zero, oilada sadoqat, ota – onaga oqibat, aka – ukalarga mehrlilik Vatan tuyg'usining debonchalaridir. Oilaga samimiy sadoqat bo'lmagan joyda, farzandlar oldida ota – ona hurmati yo'q. Bunday holatda na qarindoshlarga, na mahallaga va na Vatanga muhabbat tarkib topadi. Shu boisdan ham Prezidentimiz I.A.Karimov „ Oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab – quvvatlash – bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yahshi tushunishimiz va anglashimiz darkor “²⁸, deya alohida qayd yetganliklari bejiz emas. Oila omilining mustahkamlanishi bir tomondan, oilaga davlat va jamiyat e'tiborining kuchayishiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, oilaning subyektiv, ya'ni ichki imkoniyatlarini to'laroq yuzaga chiqarish bilan bo'g'liqdir. Oilaning ichki imkoniyatlari deganda, oila tarkibi, oila a'zolarining ijtimoiy mo'ljallari, o'z

²⁷ Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi // Xafsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida. 6-jild. - T.: O'zbekiston, 1998, B.400.

²⁸ 1998 yil – oila yili. - T.: O'zbekiston, B.10.

oldilariga qo'yayotgan maqsadlari, farzandlar tarbiyasi, ta'lim, shaxsning individual taraqqiyoti, ahloqiy tarbiya, mehr, sadoqat, sabr, muhabbat omillarining oila muhitida amal qilishi tushuniladi²⁹.

Mustaqil taraqqiyotimizning yigirma yillik davri davomida amalga oshirilgan islohatlar barcha sohalarda izchil rivojlanish uchun mustahkam va ishonchli poydevor yaratdi. Ayniqsa, islohat yo'nalishlari o'z aro uzviy bog'liq holda amalga oshirilgani va ularning bir – birini taqozo etishi e'tiborga olingani alohida tahsinga sazovor. Masalan, oila institutini olaylik Mustaqillik yillarida oilaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini oshirish, uning iqtisodiy, ijtimoiy ma'naviy va huquqiy manfaatlarini ta'minlash maqsadida ko'p ishlar qilindi. Jumladan, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash, oila a'zolarining salomatligini saqlash va bilim darajasini oshirish, oilaning iqtisodiy manfaatlarini taminlash uchun sharoit yaratish, kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash kabi misollar qamrab olinib, tadrijiy islohotlar amalga oshirildi.

Misol tariqasida birgina Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini olaylik, har yili bayram arafasida 14 nafar qizimizning shu mo'tabar mukofot bilan taqdirlanishi ko'ngillarga quvonch bag'ishlaydi, qanot bo'ladi, ulkan parvozlarga yetaklaydi. Xotin – qizlarimiz orasidan Qahramonlar, senator va deputatlar va jahon chempionlari yetishib chiqmoqda. Ular siyosiy partiyalarga yetakchilik qilishmoqda. Ilm – fan va san'at sohasida xalqaro tanlovlar g'olibi bo'lib, Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarishmoqda.

Darhaqiqat, istiqlol yillarida ayollarning va oilaning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar hamda fuqorolik jamiyatini rivojlantirishdagi asosiy vazifasi, o'rni va roli yuksak ekanligi e'tirof etildi. Chunki birinchidan, har qanday ma'naviyat, ta'lim va tarbiya oilada shakllanadi. Ikkinchidan, jamiyatimizning asosiy bo'g'inini oila tashkil etadi. Har qanday islohat, agar oilaga kirib bormasa, uning muvaffaqiyati sezilarli bo'lmasligi mumkin. Uchinchidan, mamlakatimizni isloh etish va yangilash bo'yicha belgilab olingan yuksak

²⁹ O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti.- T.:Navro'z,2005.B.242.

maqsadlarimizga erishish yo'lida tom ma'noda hal qiluvchi kuch, tayanch va suyanch bo'lishga qodir, demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizning taqdirini hal etadigan barkamol avlod avvalo, oilada etishib chiqadi.

Qolaversa, aynan oilada, ota – onaning mehr – muhabbati, g'amxo'rligi muhitida farzand dunyaga keladi. Shahs va fuqaro sifatida kamol topadi ya'ni tashabbuskorlik, vatanparvarlik, halollik, ezgulik, va mehribonlik tuyg'ulari avvalo, oilada shakllanadi. Shuning uchun ham oila va jamiyat uyg'unligini mustahkamlash, yosh oilalar haqida g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, sog'lom va mustahkam oila barpo etish uchun o'tgan yigirma yil ichida har tomonlama chuqur asoslangan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, har qaysi yosh oilaning ezgu orzusi bo'lgan sog'lom zurriyotni dunyoga keltirish, jismoniy va ma'naviy jihatdan etuk farzandlarni voyaga etkazish uchun hayotiy imkoniyatlarni yaratib berishga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilindi. Bu nafaqat yosh oilalarning bahtli bo'lishga, balki butun jamiyatimizning ravnaq topishiga, dunyo ahli havas qiladigan yangi, barkamol avlodni tarbiyalashga beqiyos hissa qo'shmoqda.

Konstitusiyamizning alohida bobi oilaga bag'ishlanib, unda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga egaligi e'tirof etildi. Mustaqillik yillarida mazkur konstitusiyaviy qoidani hayotga tatbiq etish maqsadida oila bilan bevosuta yoki bilvosita bog'liq 50ga yaqin qonun 20ga yaqin Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi qabul qilindi. Oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik bir – biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining ma'sulligi hissini oshirishdan, biron – bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iborat deb belgilab qo'yildi³⁰.

³⁰ Qodirova O'. Jamiyat va davlat muhofazasida. // Qalqon, 2011, 9-son, B.6.

Bir qator vazirliklar,xususan Adliya,Sog'liqni saqlash,Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish xalq ta'limi vazirliklarining tegishli asosiy vazifasi sifatida nikohni qayt etish,kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish, oilaviy tadbirkorlik rivojlantirilishini rag'batlantirish,oila,ota – ona va bolaga tibbiy – ijtimoiy yordam ko'rsatish dasturini amalga oshirish kabilar belgilandi.1998 yilda Respublika „Oila“ilmiy amaliy markazi tashkil etildi. Agar 1998 yil mamlakatimizda bevosita „Oila “yili deb e'lon qilingan bo'lsa,undan keyingi yillarda ham oilaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini oshirish, uning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy manfaatlarini ta'minlash, har bir oilaning farovonligini ta'minlash,har bir oilaning farovonligini yaxshilash bo'yicha chora – tadbirlar belgilandi.Oilaning ijtimoiy – iqtisodiy muammolarini hal qilish maqsadida kuchli ijtimoiy siyosat yuritildi.Yosh oilalar qo'llab – quvvatlandi, xususan uy – joy qurish,ro'zg'orini butlash uchun tijorat banklari tomonidan ipoteka va iste'mol kreditlari berildi, oilalarga yerlar tomorqa sifatida berildi.

Oila a'zolarini ish bilan band qilish maqsadida yangi - yangi mexanizmlar yaratilmoqda.Masalan,kasanachilik sohasida 2010yilda 210 mingdan ortiq ish o'rni tashkil etilgan bo'lsa,2011 yilda esa bu sohada, shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan qariyb 220 ming kishini ish bilan ta'minlash rejalashtirilgan.Mustaqillik sharoiti bilan xususiy mulkga keng yo'l ochib berilganligi tufayli tadbirkorlik faoliyati keng quloch yoydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2000 yilda 31 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 52.5 foizga etdi. Oilalarni sifatli va uzoq muddat foydalanadigan iste'mol tovarlari bilan ta'minlash darajasi sezilarli ravishda oshib, har 100 oilaga o'rtacha 132 ta televizor, 99 ta xolodilnik,18 tadan ziyod kondisioner, 12 ta shaxsiy komp'yuter, 27 tadan ortiq yengil aftomobil to'g'ri kelmoqda .

Shuningdek, hukumatimizning „Qishloq joylarda uy – joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi Qaroriga muvofiq qishloq joylarda xususiy uy – joy qurilish uchun har bir imorat quruvchiga 0.06ga hajmida yer uchastkalari ajratildi,namunaviy loyihalari asosida xususiy uy – joylar

va ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda. Bu ham oilalarni yanada farovon, qulay hayot kechirishlari uchun mustahkam zamin yaratmoqda. 2010yilda respublikamizning 159 ta qishloq tumanidan namunaviy loyihalar bo'yicha tayyor holda topshirish sharti bilan 6ming 800 ta uy – joy barpo etildi. Joriy yilning birinchi yarmida esa yakka tartibdagi uy joy qurilayotgan yangi qishloq mavzellarida namunaviy loyihalar bo'yicha 2260 ta uy – joy topshirildi.

Istiqlol yillarida deyarli har bir oilaga zamonaviy axborot texnologiyalari kirib bordi. Ayniqsa, internet, mobil aloqadan foydalanuvchilar soni yildan yilga juda katta sur'at bilan o'sib bormoqda.

O'zbekiston mobil aloqasining rivojlanish ko'rsatkichi bo'yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlar qatoriga kirdi. 19 milliondan ortiq abonent bunday aloqa xizmatlaridan foydalanilmoqda, bu esa 2000 yilga nisbatan 200 barobar oshiq deganidir. Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni esa 1.4 barobar ko'payib 6.6 million kishidan oshdi.

Bolalar sportini rivojlantirish keng miqyosida amalga oshirildi Bugungi kunda o'quvchilarning har uch nafaridan biri sport bilan muntazam shug'ullanmoqda. Ayniqsa qiz bolalarni sport bilan shug'ullanishga badiiy gimnastikaga jalb qilish jahonda bo'lib o'tayotgan turli nufuzli tanlovlarda o'z natijasini ko'rsatmoqda. Shu bois mamalakatimizda aholi salomatligining muhim manbai hisoblangan jismoniy tarbiyaga ahamiyatni yanada kuchaytirish, uning barcha oilalarga kirib borishiga erishish, oilaviy sportni targ'ib etish uchun joylarda ayollarning bu ishga keng jalb etish davr talabidan kelib chiqmoqda. Oilaviy sport bilan shug'ullanish, avvalo, oila mustahkamligini, saranjom – sarishtaligi va farovonligini taminlaydi. Bunday oilada yoshu qarining salomatligi mustahkam, ma'naviy muhit sog'lom, o'zaro munosabatlar mo'tadil, har bir oila a'zosining o'qishga, ishga ishtiyoqi baland, ruhiyati hamisha ko'tarinki bir – biriga mehr – muhabbati va e'tibori baland bo'ladi³¹.

Barchamizga ma'lumki, oilaning mustahkamligini taminlashda mahallaning o'рни va ro'li beqiyosdir. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, oilada havas qisa

³¹ Botirova Z. Barkamollik garovi//oila 2004yil, 1-son. B. 72.

arziydigan muhitni yaratishda birinchi navbatta mahalla ta'sirchan kuchga ega bo'lishi kerak. 2004 yil 25 maydagi Farmonlari ijrosi o'laroq oilada sog'lom manaviy – ahloqiy muhitni barpo etishda mahalla va xotin – qizlar tashkilotlarining rolini oshirish bo'yicha bir qator chora tadbirlar belgilandi. Bunda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayt etish bo'limlari ham faol qatnashib, joylarda sog'lom oilani shakllantirish, oila-nikox masalalari buyicha qonunchilik normalarini tushuntirish va ularga rioya qilish buyicha targ'ibot va tashfiqot ishlarni amalga oshirmoqdalar. Natijada milliy urf-odatlarimizga qadriyatlarimizga xos ravishda oilaviy kelishmovchiliklarni mahalla doirasida, ko'pni ko'rgan keksalar, faollar yordamida hech kimga ovoza qilmay, ortiqcha rasmiyatchilikka yul qo'ymay hal etish yarashuv jarayonlarini amalga oshirish orqali jamiyat hayotining ustuni bo'lgan oilani mustahkamlashning azaliy odatlari qayta tiklanadi.

Oilaning mustahkamligini ta'minlashda respublikamizda o'tkazilayotgan turli tanlovlarning ham o'rni beqiyosdir. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida "Siz oila qurishga tayyormisiz", yosh oilalar o'rtasida "Na'munali yosh oila" ko'rik tanlovlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralari va nikoh uylarida tashkil qilingan. «Yosh oila quruvchilar» maktabiga mustaqil hayot ostonasida turgan kollej va litsey o'quvchilari keng jalb etilmoqda. Mazkur maktablarda tibbiy ko'rik, oila qurish, uni mustahkamlovchi omillar, ota-onalik ma'suliyati, farzand tarbiyasi kabi muhim hayotiy masalalar bo'yicha bilim berilmokda.

Eng quvonarlisi shundaki, islohatlar natijasida o'tgan yigirma yil ichida odamlarning o'rtacha umr ko'rish darajasi 67 yoshdan 73 yoshga yetdi. Oilani boshqarish jamiyat xayotini boshqarishning bir kurtagi hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanib, ma'naviy omillarning ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati ortgan sari oiladagi tarbiyaga e'tibor ham kuchaya boradi. Bu boradagi muhim vazifalardan biri oiladagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ota-onalarda vazifalar oldidagi, farzandlarda ota-ona va jamiyat oldidagi burch va ma'suliyat

tuyg'usini kuchaytirishdir. Bunday muhitni yaratishda jamiyat, davlat, jamoatchilikning o'рни katta. Agar jamiyat, davlat, jamoatchilikning ta'siri yetarli bo'lmasa, oilada farzand tarbiyasi borasidagi o'рни ham zaiflashadi. Shu sababli hozir jahondagi barcha demokratik, dunyoviy davlatlarda oilani mustahkamlash, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini yaxshilash, Xotin-qizlar, bolalarning huquqlarini himoya qilish, ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash masalalariga katta ahamiyat berilmoqda.

Ayollarning ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan NNTlardan biri – O'zbekiston Respublikasi Xotin – qizlar qo'mitasi hisoblanadi. Ushbu tashkilot 1991 yil 23 fevralda tashkil topgan va shu yilning 28 noyabrida adliya idoralarida ro'yxatdan o'tgan. Bugungi ma'lumotlarga ko'ra tashkilotda 35 mingga yaqin a'zo bor.

Xotin – qizlar qo'mitasi o'z oldiga qo'ygan keng miqiyosdagi vazifalar ichida davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga ayollarni jalb etish asosiyo o'rin tutadi.

Ayollarning ijtimoiy – siyosiy faolligini tashkil etish va yuksaltirishni bilvosita amalga oshirayotgan NNT larga O'zbekiston olimi ayollarining “Olima” uyushmasi (1992 yil 9 yanvarda tashkil etilgan) hamda “Faxriya ayollar” uyushmasi (1996 yil 8 yanvar) va hokazalar misol bo'lishi mumkin.

Ayollarning ijtimoiy – siyosiy faolligini yuksaltirish vazifalari bilan bevosita O'zbekiston huquqshunos ayollarining jamoat birlashmasi (1999 yil 22 fevralda tashkil etilgan), “Ayol va jamiyat” instituti (1997 yil 10 sentyabrda tashkil etilgan), “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati qoshidagi “XXI asr ayoli” markazi (1999 yil 8 yanvarida tashkil qilingan) kabi muassasalar shug'ullanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oilada nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma'nan va axloqan tarbiyalanadi, shakillanadi hamda kamol topadi. Uning shaxs o'zligini namoyon etishda ahamiyati benihoyat kattadir. Oila insonning shaxs sifatida shakillanishga ijobiy ta'sir qiladi, yoshlar ma'naviyatini ta'komillashtirishiga yordam beradi.

Barkamol avlodni tarbiyalash va mukammallikka yetkazish oiladan boshlanishini hisobga oladigan bo'lsak, inson o'z hayotini oilasiz tasavvur qila

olmaydi va aynan mana shu oila muhitida jamiyat asosi sifatida kamolotga erishadi. Oila o'zaro hurmat, burch, ezgulik, mehr-oqibat, vijdon qonunlari asosida qurilganda sog'lom ijtimoiy muhit yuzaga keladi va o'zining ko'p asirlik mustahkam ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, shunda demokratik negizlarga asos solinadi, ularning ta'lab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakillanadi.

II-BOB O'ZBEKISTONGA OILAVIY MUNOSABATLAR HAMDA FUQAROLIK JAMIYATI QURISHDA AYOLLAR FAOLIGINING OShib BORISHI

2.1. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda oila mustahkamligi va ayollar faolligining huquqiy asoslari

Mamlakatimizning ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotida keskin sifat burilish yuz bermoqda. Mazmunan demokratik va insonparvarlik asosida qurilayotgan jamiyatning har tomonlama taraqqiyoti kishilarning tafakkur tarzi, maqsad va intilishlari shu taraqqiyot talablariga moslik darajasi ularning aqliy, jismoniy va ma'naviy madaniyatlilik saviyasi bilan chambarchas bog'liq.

Ana shu ma'noda olib qaralaganda jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilalarning barqarorligi, uning avlod tarbiyasidagi funksional maqomi ana shu oilalarning tom ma'nodagi tayanchi bo'lgan ayollarning mavqeyi va nufuzi bilan bevosita aloqadordir. Boshqacha aytganda har qanday jamiyatning madaniyatlilik darajasi, avvalo o'sha jamiyatning ayollarga munosabati bilan belgilanadi³².

O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygan kundan boshlab oila va ayol uyg'unligining huquqiy masalalariga yangicha yondashuv yuzaga keldi.

Oilaning jamiyatdagi rolini ta'minlashda, uning huquqiy muhofazasi va ijtimoiy mavqeini mustahkamlashda. "Oila Kodeksi"ning roli benihoya kattadir. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi jahon hamjamiyatida umumiy e'tirof etilgan huquqiy normalarga to'la mos ravishda tuzilgan holda, "Oila jamiyatning tayanch tuzilmasidir" degan fikrga asoslanadi.

Oilaning huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil qiladi (asosiylari):

1. Inson huquqlari umumjahon Deklorasiyasi (1948 yil dekabr). 16-moddada berilgan.

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. 63-66-moddalarda bayon etilgan.

3. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi (1998 yil 30 aprelda qabul qilingan) 8 bo'lim 238 moddadan iborat.

4. Va boshqa shular doirasida qabul qilingan normativ hujjatlar.

1998 yil 30 aprelda Oliy Majlis II-sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi» tasdiqlandi. U 1998 yil 1 sentyabridan amalga kiritildi.

1-bo'lim umumiy qoidalar, 2-bo'lim Nikoh, 3-bo'lim qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash, 4-bo'lim Ota-ona hamda voyaga yetmagan

³² Ochilova B. Milliy – ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatli va vorisliq. - T.: "Istiqlol", 2009, B. 174.

bolalarning huquqlari va majburiyatlari, 5-bo'lim Oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari, 6-bo'lim Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari, 7-bo'lim Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish, 8-bo'lim Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish deb nomlanadi.

«Oila kodeksi» quydagi prinsiplar asosida tuzilgan va bayon etilgan:

- 1) Oilaviy munosabatlarda ayol va erkaklarning teng huquqliligi.
- 2) Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi.
- 3) Oilada er va xotinning teng huquqliligi.
- 4) Ajralishning erkinligi (davlat tomonidan nazorat qilinishi).
- 5) Bolalarni birgalikda tarbiyalash tamoyili.
- 6) Yakka nikohlik prinsipi.

Mazkur oila kodeksi 1)dan «Inson huquqlari umum jahon Deklorasiyasi (1948 yil 10 dekabr), 2) dan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 14-bob, 63-66-moddalariga, "Oila kodeksi"ga asoslanadi.

Oila kodeksida nikoh tuzish tartibida diniy rasm-rasumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emasligi aytilgan. Nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilangan. Uzrli sabablar bo'lganda nikoh yoshini 1 yosh kichiraytirish mumkin. Nikoh tuzishga monelik holatlarida nasl-nasab sharajasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida mumkin emasligi aytiladi. Bugungi kunda nikohlanuvchi shaxslar tibbiy ko'rikdan o'tkazish yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu qonun hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

Demak, oila kodeksida oila kishilarning tabiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlik ekanligi inobatga olingan.

Oilada er va xotin teng huquqlardan foydalanadilar va ular majburiyatlarga ega.

Umuman, «Oila kodeksi» demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda, 5 million atrofida oilalarning tub ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ruhiy holatlarini o'zida ifoda eta olgan.

O'zbekiston ijtimoiy hayotida oilaning tutgan o'rnini xususiyatlari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.³³

- **birinchidan**, huquqiy mexanizmlar, masalan ijtimoiy yordam, mahalliy o'zini – o'zi boshqarish, jamoat tartibini ta'minlashning samarali ishlashi oilaning qo'llab quvvatlanishiga muhtoj. Negaki u davlat faoliyatini insoniylashtirishga qaratilgan ko'pgina jamoat talab – ehtiyojlarini va manfaatlarini keltirib chiqaradi;

- **ikkinchidan**, mamlakatni isloh qilish va davlat faoliyatining eng muhim muammolarini oilada norasmiy baholash, oilaviy birdamlik, shuningdek axbarot bilan ta'minlash darajasining o'sishi, bir tomondan, jamoatchilik fikrini va ayniqsa yoshlar axloqini barqarorlashtiradi, ikkinchi tomonda, islohatlarning huquqiy va ijtimoiy – iqtisodiy mexanizmlarini samaraliroq yo'lga qo'yish maqsadida fuqarolarning o'zini – o'zi boshqarish yetakchilari va deputatlar, jamoatchilik fikri orqali davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga ta'sir ko'rsatadi;

- **uchinchidan**, davlat yangi sharoitlarga ijtimoiy – iqtisodiy va ruhiy moslashishga qaratilgan qonunlar davlat boshlig'ining farmonlari, hukumat qarorlari orqali oilalarning hayotiy muhim manfaatlariga bevosita bog'liq holda ish olib borishi ijtimoiy keskinlik nisbatan past bo'lishni va ijtimoiy portlashlarning oldini olishni ta'minlaydi.

Prezidentimiz takidlaganlaridek; "Biz o'z haq – huquqlarimizni taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan ayni zamonda shaxsi manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak"³⁴. Chunki islohatlarning asosiy maqsadi mamlakatimizda yashayotgan kishilar turmush sharoitini yaxshilash bo'lsa, bu masalani amalga oshirish uchun ijodiy fikrlovchi, erkin, mustaqil va

³³ Tojixonov U, va boshqalar. O'zbekiston Respublikasiining Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: Adolat, 2004, B.420.

³⁴ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O'zbekiston, 1999, B.17-18.

tashabbuskor shaxslarni tarbiyalamog'imiz kerak. Bu masalalarni amalga oshirish shaxsni ijtimoiylashuvini ham talab iladi. Shaxsning ijtimoiylashuv tushunchasiga quyidagicha izoh berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Ijtimoiylashuv tushunchasi avvalo ikki hil ma'noda qo'llaniladi:

Birinchidan, shaxsning bioijtimoiy mavjudot sifatida shakllantiruvchi va uning umri davomida egallagan tabiiy sifatlarini o'z ixtiyoriga binoan namoyon etuvchi hayot jabhasiga aytiladi. Bularga kishining shaxsiy hamda oiladagi hayoti mehnat va siyosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan barcha foydali harakatlari kiradi.

Ikkichidan, ijtimoiy hayot jamiyat tomonidan yaratiladigan voqealik bo'lib, insonning barcha ongli harakati natijasida vujudga kelgan hodisalar majmuidir. Bunda shaxs o'zini ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda sodir bo'ladigan harakatlari orqali namoyon qiladi.

Shaxsni ijtimoiylashuvi ko'p qirrali murakkab jarayon bo'lib, u uzluksiz tarbiya jarayonida shaklanib boradi. Bu islohatlarni amalga oshirish jarayonida jamiyatni kelajagi bo'lgan barkamol shaxsni etishtirish va tarbiyalash vazifasi shubhasiz ayollar va onalar zimmasiga tushadi. Xotin-qizlarni jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash, ularni har jihatdan qo'llab quvvatlash va rag'barlantirish, huquq va manfaatlarini himolash Prezidentimiz Islom Karimov rahnomaligida yuritilayotgan siyosatning muhim bir bo'lagidir. Chunki "jamiyatning demokratik o'zgarishlar yo'lida nechog'lik ilgarilab ketgan, shu jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabati, uning madaniy-ma'naviy saviyasini belgilaydi".

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida ayollarimiz erkaklar bilan bir qatorda turib mehnat qilmoqda. O'zbekiston aholisining 52 foizini, ishchi kuchining 45 foizini ayollar tashkil qiladi. Respublikamizdagi oliy ma'lumotli mutaxassislarning 45 foizi ayollardir. Mahalliy vakillik organlarida ayollarimizning umumiy ishtiroki 16 foizini, Qonunchilik palatasida 17,5 foizini, Senatda 15 foizini tashkil yetadi. Xalq ta'limi sohasida 70 foiz, sog'liqni saqlash sohasida 73 foizni, xususiy firmalarda 10 foizni tashkil qiladi.

Bugungi kunda o'zbek ayollarini ijtimoiylashuvi jamiyat uchun zarur ekan, oila va ayollar faolligini oshirish uchun quyidagi muammolarni hal qilmoq zarur:

- bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'zgarishlar va uning ijtimoiy oqibatlarini tadqiq etish;
- tadbirkor ayol shaxsining ijtimoiy, siyosiy, psixalogik hususiyatlarini o'rganish;
- ayollar bandligi va ularni ish bilan ta'minlash borasidagi muammolarni hal etish;
- ayollarning ijtimoiy – siyosiy faolligini o'rganish; ayollar huquqiy manfaatlarini etish;
- ayollarning milliy, dunyoviy va diniy qiziqishlarini o'rganish.

Ayrim turmush tarzi nosog'lom oilalarda ayolga bo'lgan tazyiq natijasida uning imkoniyatlar doirasi cheklanadi, farzandlar tarbiyasida nohush holatlar sodir bo'lishi mumkin. Ayolning oiladagi o'rne mustahkam bo'lsa, jamiyatdagi mavqei yuqori bo'ladi. Hozirgi kunda ayollar davlat sektorlarida, nodavlat tashkilotlarida faoliyat olib borib jamiyatning ravnaqiga katta xissa qo'shib kelmoqdalar. Ayollar avvalo ona va oila bekasidir. Oila esa kishilik jamiyatining poydevoridir. Jamiyat xayotida ijtimoiy faol bo'lgan ayol oilada xam o'z o'rne va nufuziga ega buladi jamiyat xayotini malum bir soxada faoliyat kursatish uchun ayol yuksak bilim va manaviyatli bilish kerak .Ayollarning ijtimoiylashuvi ularning zamonaviylashuvi va qat'iy irodaga egaligi bilan mukammallashib boradi. Ayol jamiyatdagina emas oilada xam ibrat namunasiga aylanadi. Uning oilada farzand tarbiyalashdek muxim vazifalarni bajarish jarayonida ayol (jamiyat talablarini yaxshi tushunib yetadi va farzandlarida) uzidagi barcha axloqiy va manaviy jixatlarini farzandlariga singdiradi. Ijtimoiy faol ayol marifatli bulgani uchun farzandlaridan zukkolik, idroklilik, zexinlilik xislatlarini tarbiyalaydi. Jamiyat xayotida faol ishtirok etish jarayonida ayol jamiyat talablarini yaxshi tushunib yetadi va farzandlarida uddaburonlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik jixatlarini shakillantiradi. Jamiyatning siyosiy xayotida sodir bulayotgan uzgarishlarni yaxshi tushunib yetgan faol ayol

farzandlarida siyosiy va iqtisodiy xayotda faol ishtirok etish xususiyatini shakllantiradi. U tarbiya jarayonida sodiqlik, barqarorlik qat'iylilik va jamiyatdagi barcha voqea xodisalarga uzining mustaqil fikrini bildirib oluvchi, manaviy dunyoqarashi yuksak bulgan shaxsni etishtiradi³⁵. Jamiyat xayotida ijtimoiy faol bulgan ayol oz farzandlarini bugungi kun imkoniyatlarigagina emas, balki ertangi kun ehtiyojlariga tayanib tarbiyalaydi. Shaxsda nosog'lom goya va mafkurani manaviy qadriyatlardan farqlay olishi xususiyatlarini shakllantiradi. "Shuni etiborga sazovorki, xotin-qizlar yurtimizdagi uzgarishlar jarayonidagi faol ishtirok etish bilan birga, uzining bilimi professional malakasi va maxorati xisobidagi kupgina jabxalarda yetakchi mavqelarni egallab kelmoqda. Bugungi kunda xayotimizda to'g'ri katta urin olayotgan fermerlik xarakati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, ilmu-fan, tibbiyot, talim-tarbiya, madaniyat va sanat kabi unlab muxim soxa va tarmoqlar rivojini ayollarning ishtiroksiz tasavvur kilib bo'lmaydi"³⁶. O'zbekistonda mustakillik yillarida amalga oshirib kelinayotgan ijtimoiy yunaltirilgan bozor isloxlari samaradorligini ta'minlashda ayollar ruli ortishi, ularning jamiyat xayotining barcha jabxalarida faol ishtirok etish, onalik burchlarini bajarish bilan birga, ishlab chiqarishda mehnat qilishi uchun zarur xuquqiy va ijtimoiy kafolatlarni yaratilganligi shundan dalolat beradiki, respublika xayotining barcha soxalarini kamrab olgan tub uzgarishlar, yangilanishlar tufayli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish demokratik jarayonlarni amalga oshirishning muxim shartlaridan bulib qolmoqda. fuqarolik jamiyati kurish, uni demokratlashtirish xamda modernizasiyalash va barcha jabxalarda qonun ustuvorligini taminlash goyasini shakllantirishning asosiy tamoyilari Prezident Islom Karimov asoslarida anik ravshan belgilab berilgan. Mazkur goya negizida teng xuquqlik tamoyilarining tulaligicha kafolatlanganligi respublikaning salkam 13 millionga yakin xotin qizlari manfaatlariga tulik mos tushadi. Shuningdek I Karimovning respublikadagi xotin-qizlar tashkilotlari faoliyatini ayollar

³⁵ Jasanova S. Ayollar ijtimoiy faolligini oshirishning shaxs barkamollashuvidagi ahamiyati. // Respublika ilmiy amaliy konfrensiya materiallari. 2011 yil, 14 mart, B. 110-111.

³⁶ Karimov I. A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizasiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. 18-jild. - T.; O'zbekiston, 2010, B. 202.

manfaatlarining amaldagi xaqiqiy ifodasi va ximoyachisiga biz barpo yetayotgan erkin fuqarolik jamiyatining tom manodagi uzviy bir qismiga aylantirish borasidagi davlati yurtimizda xotin-qizlarga bulgan xurmat xamda katta ishonchning yana bir ifodasidir.Chunki yurtboshimiz ta'kitlaganidek,"jamiyatning demokratik o'zgarishlar yo'lidan nechog'lik ilgarilab ketgani,shu jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabati uning madaniy-manaviy saviyasini belgilaydi". Isloxatlarni amaliyotga tadbiiq etishda respublika axolisining 51,2 foizini, faol mexnat resruslarining 47,8 foizining tashkil etuvchi xotin - qizlarning toboro faollashib borayotganligi mustaqillik xotin - qizlarining ijtimoiy siyosiy faolligini oshirishga ulkan imkoniyatlar ochib berilganligi bu ulug' nemat ayolning oila va jamiyatda uz urniga ega bulishga kafolat ekanligini tula anglab yetilganligidan dalolatdir³⁷.O'zbekiston xotin qizlari orasida ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy soxalarda faoliyat olib borayotgan yetuk malakali mutaxasis kadrlar soni yildan yilga ortib bormokda.Albatta, ularning saloxiyatidan oqilona foydalanish, mavjud istedod va iqtidorlarini tula ruyobga chikarishlariga imkoniyat yaratish uchun keyingi yillarda milliy konunchilikda xam qator ijobiy uzgarishlar amalga oshirildi. 2004-yilda bulib utgan ikki palatali parlamentga saylovlar arafasida prezident I Karimov tashabbusi bilan "saylovlar tugrisida"gi qonunning 22-moddasiga kiritilgan uzgarishlarda xotin-qizlarning mamlakat qonun chiqaruvchi organlarida ishtiroki uchun imtiyozli kvotaning berilishi shular jumlasidandir.Unda xar bir siyosiy partiyadan mamlakat qonunchilik palatasida senatiga buladigan saylovlarda qatnashishi uchun kursatilgan nomzodlarning kamida 30 foizi xotin qizlardan iborat bulishi nazarda tutilgan.

Bugungi kunda respublikamizdagi mavjud xar bir siyosiy partiya "ayollar qanoti" bulimi faoliyat yuritmoqda siyosiy partyalardagi azolar soni xotin qizlar xisobiga toboro ortib bormoqda.Chunki demokratik jarayonlar xotin qizlarsiz tasavvur etilmas ekan, siyosat borasida mamlakat boshqarishda xotin qizlar ulushining ortib borishidan jamiyat faqat manfaat quradi.

³⁷ Toliboyeva N. Xotin - qizlar: ijtimoiy faollik omillari. // Jamiyat va boshqaruv, 2010, 3-son B.117.

Xotin qizlarning siyosiy jarayonlarda ongli ishtirok etishga erishish erkin jamiyatning ozod fuqarolari bulish yulida respublika xotin qizlar qumitasi “olima ayol” respublika “oila” ilmiy-amaliy markazi nodavlat va notijorat “mexr” uyushmasi jamoatchilik fikrini urganuvchi “ijtimoiy fikr” markazi “soglom avlod uchun” xalqaro xayriya jamgarmasi kabi qator jamgarma va tashkilotlar, maxalliy xokimyatlar xamkorlikda faoliyat yuritib yangi qonunlar ishlab chiqarishda xam tashabbus kursatib kelmoqdalar³⁸. Maxalla va uzini-uzi boshqarish organlarining ayollarni uz faoliyatiga,jamiyat va davlatni boshqarish ishlariga jalb qilishni quyidagi yunalishlarda o’rganish mumkin:³⁹

- ayollar maxalla va fukarolar yiginining faoliyatini olib boruvchi bulimlar, kamissiyalar va devonni shakillantiradi.

- ayollar fuqarolar yigini raisini va uning maslaxatchilarini saylashda ichki boshqaruv organlarining faoliyatini belgilab beruvchi nizomni tasdiqlashda malum kotibni tayinlashda va xisobotlarni tinglashda mukammal qilishda ishtirok etadi.

- ayollar fuqarolar yigini orqali uzini uzi boshkarish organlarining faoliyat dasturini va xarakatlar smetasini,xududni kompleks rivojlantirishni taminlash,axoli punktlarini obodonlashtirish va ularning sanitariya xolatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejasini tasdiqlaydi.

- ayollar fuqarolar yig’ini orqali O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar va o’z qarorlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda qatnashadi.

- ayolar o’z vakillari, maslaxatchilari va fuqarolar yig’ini orqali o’zini boshqarish organlarining mulkiga yegalik qiladi , undan foydalanadi, uni tasarruf etadi.

Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligiga tayangan xolda ularning qiziqishlari, ko’nikma va bilimlariga muvofiq keladigan xususiy korxonalarini

³⁸ Toliboyeva N. Xotin - qizlar: ijtimoiy faollik omillari. // Jamiyat va boshqaruv, 2010, 3-son B.118.

³⁹ Huseynova A, Kenjayeva X. Mahallada ayollar ijtimoiy faolligi // Jaimyat va boshqaruv, 2011, 1-son, B.46.

barpo etishni qollab-quvvatlash maxalla qo'mitalarining asosiy vazifalaridan biridir.

Yurtimizda ayollarga millatimizga xos bo'lgan yuksak extirom ila munosabatta bo'lish an'anasi biz uchun ibratli merosdir. O'zbekiston axolisining katta qismini yanada oshirish, izzat-ikromini joyiga qo'yish, ularning og'irini yengil qilish davlatimiz raxbariyatining doimiy diqqat e'tiboridadir. Yurtimizda ayolga xurmat davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Bugungi kunda davlat va jamiyat xayotida ayollarning siyosiy va ijtimoiy mavqeini yanada yuksaltirish, ularning obro' yetiborini izzat-ikromini joy-joyiga qo'yish davlat siyosatining muxim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Mazkur soxadagi davlat siyosatining muxim yo'nalishlarini quydagilar tashkil etiladi:⁴⁰

- ayollar manfaatlarini ximoya qilishning xuquqiy asoslarini takomillashtirish, ularning davlat, jamiyat va madaniy qurilishdagi , jamiyatni demokratik va ma'naviy yangilashdagi ro'lini oshirish;

- barcha darajalardagi boshqaruv tuzulmalarida ayollarning ro'lini oshirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish o'rganlarida, jamot birlashmalarida ayollarning faol ishtirok etishi uchun shart-sharoitlaryaratish;

- oilada qulay ma'naviy-axloqiy muxitni, bolalarni tarbiyalashni shart-sharoitlarini, shakillantirishda ayollarning maqomi va rolini oshirish;

- iqtisodiy isloxatlarni amalga oshirishda, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda ayollarning faol ishtirokini ta'minlash. Bugungi kunda ayollarga ko'plab ijtimoiy imtiyozlar joriy qilindi. Ana shunday chora tadbirlar tufayli ayollarimiz ijtimoiy-iqtisodiy isloxatlarning, davlat va jamiyatda kechayotgan xayot baxsh o'zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylandilar.

⁴⁰ Dehqonova D. Ayollarga munosabat ijtimoiy taraqqiyot va fuqarolik jamiyati belgisidir.// Fuqarolik jamiyati, 2007yil,2-son,B.37-38.

Keyingi yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy xayotida tutgan o'zni va salohiyatini yuksaltirish, ularning jamiyat ma'naviy va madaniy xayotida obro'-yetibori va nufuzinig yanada oshirilishiga alohida ye'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ana shunday ye'tiborning yorqin namunasidir. Zero, farmon erkin demokratik davlat xamda fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan O'zbekiston ayollarining oila, jamiyat va davlat qurilishidagi o'zni va axamiyatini yanada oshirish, ularning barcha soxadagi xaq-xuquqlarini amalda kafolatlash, bu ishlarga bosh-qosh turgan, o'z atrofida minglab ayollar tashkilotlari va faollarini birlashtirgan Respublika xotin-qizlar qo'mitasi oldiga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Farmon bandlarini sinchiklab taxlil etar ekanmiz, unda qo'mitasiga qo'yilayotgan vazifalar xar bir fidoiy ayol va u faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotning yangi jamiyat qurish jarayonidagi mas'uliyatini xis etish qiyin emas⁴¹.

Fuqarolik jamiyatining xar bir a'zosi o'z xaq va xuquqlari xamda mas'uliyatini to'liq anglab yetgan yuksak oila va madaniyatli insonlar bo'lishini taqozo etar ekan, farmondan kelib chiqadigan muxim masalalardan biri - xotin-qizlarning xuquqiy madaniyatini oshirish muammosidir. Bu borada qator xukumat qarorlari, jumladan. 1997 yil qabul qilingan "Jamiyatda xuquqiy madaniyatni oshirishnig milliy dasturi" va shu dastur asosida ishlab chiqilgan talay xujjatlar bo'lishiga qaramay, ko'p xollarda xotin-qizlarning xuquqiy ongi bilim doirasi va madaniy saviyasi yetarli bo'lganligi bois hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar kelib chiqmoqda. Shuning ushbu xujjatning amalda bajarilishi va shu orqali xotin-

⁴¹ Inomova S. Xotin –qizlar tashkiloti ;istiqboldagi rejalar.//Oila,2004yil,1-son, B.7-8.

qizlarning oila, jamiyat va davlat qurilishidagi tadbirlar ishlab chiqish va xayotga tadbqiq etish muhim axamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, xotin-qizlar oila va jamiyat iqtisodiy asoslarini mustahkamlash hamda mamlakat taraqqiyotining muhim omili xisoblanidi. Yurtboshimiz takidlaganidek. “Ayol kishi o’zi ishlab daromad topsa, u mustaqil bo’ladi va o’zini-o’zi ximoya eta oladi. Xar qanday yosh ayollarning mustaqilligini, faol turmush tarzining birinchi shartidir” shu nuqtaiy nazardan barcha xotin qizlar uchun qo’shimcha ish o’rinlarini yaratish ularning kasbiy maxoratini davr talabi darajasida yuksaltirish tadbirlarini ko’rish, bu borada mavjud qonunchilik xujjatlarini takomillashtirishdan iborat. Respublika Xotin-qizlar qo’mitasi tomonidan Mehnat kodeksi hamda mehnatni muhofaza qilish to’g’risidagi qonun bandalariga ayrim o’zgartirishlar kiritish orqali xotin-qizlar ish bilan band bo’lgan barcha sohalarda ularning salomatligi, mehnat unumdorligini kafolotlovchi shart-sharoitlar yaratish borasida zarur takliflarni ilgari surishni ko’zda tutadi. Shu bilan birga, jaxon miqiyosida glaballashuv jarayonlarining ildamlashib borayotgani, turli sabablarga ko’ra xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan ayrim o’zbekistonlik xotin-qizlar haq-huquqlarining himoya qilinishi borasida ham talay takliflar kiritilmoqda⁴². Jumladan, chet ellarda mehnat qilayotgan opa-singillarimiz ish faoliyatini tartibga soladigan migrasion byuro tashkil etish, shuningdek xorijda ishlayotgan xotin-qizlar mehnat huquqlarining to’liq kafolatlanishi, mehnat qonunchilikmiz xalqaro huquqiy me’yorlar bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

O’zbekiston davlat siyosatining bosh yo’nalishlaridan biri ayollar ahvolini yaxshilash, ijtimoiy va iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, shuningdek xotin-qizlar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishdan iborat.“Bunday yuksak va ezgu marralarga yetishishda, avvalombor, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, ahillik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, iqtisodiyotimizni jadal sur’atlar bilan rivojlantirish, yurtimizni yanada obod va farovon etish masalasi biz

⁴² Inomova S. Xotin –qizlar tashkiloti ;istiqboldagi rejalar.//Oila,2004yil,1-son, B.7-8.

uchun doimiy ustivor vazifa bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi"⁴³

Yurtboshimiz Islom Karimovning "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF 3334-sonli farmoni⁴⁴ jamiyatda xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirish yo'lida aniq chora-tadbirlarni belgilash uchun xizmat qiladi. Mazkur farmon talablaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizda xotin-qizlar taraqqiyotining barcha jihatlarida faol ishtirokining ta'minlanishiga erishish, ularning shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini yerkin namoish etishlari uchun sharoitlar yaratib berish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu farmon talablaridan kelib chiqqan holda mamlakatimiz miqiyosida bir qator vazifalar muvaffaqiyatli tarzda hal etilmoqda. Shuningdek, ayniqsa uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida tahsil olayotgan xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qilayapti. Yurtboshimiz farmonidan kelib chiqqan holda ba'zi takliflar va mulohazalarni tavsiya etish mumkin, jumladan:⁴⁵

- xotin-qizlarning asosiy huquq va yerkinliklarini amalga orish, ularning ijtimoiy – iqtisodiy hamda jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida faol ishtirokining doimiy ishlaydigan tizimini monitoringchini tashkil etish hamda monitoring natijalarini ishda foydalanish uchun tegishli davlat va jamoat tashkilotlariga yetkazishni ta'minlash;
- ijtimoiy – siyosiy islohatlarni amalga oshirishda xotin-qizlarning rolini ko'tarish masalasi bo'yicha "Ayol va siyosat", "Jamiyatni demokratik yangilashda xotin-qizlarning o'rni va roli" mavzusida mamlakatning turli siyosiy partiyalari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari bo'lgan xotin-qizlar ishtirokida davr suhbatlari va seminarlar-treninglar turkumini tayyorlash va o'tkazish; va boshqalar. Bizning

⁴³ Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilishsari. 18-jild.-T.; O'zbekiston, 2010, B.205.

⁴⁴ O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha shora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. //Xalq so'zi, 2004 yil, 27 may.

⁴⁵ Nishonova N. Xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirishda qonunlarning o'rni. falsafa va huquq, 2011, 2-son, B.81.

jamiyatimizda xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirishga katta etibor berilayotganligi mamlakatda siyosiy, huquqiy va ahloqiy narsalarning ustunvorligidan dalolatdir. Xotin-qizlar siyosiy faolligini amalga oshirishga erishish uchun quyidagi vazifalarga e'tiborni qaratish lozim: ⁴⁶

- xotin-qizlarga doir davlat siyosati mazmuni, moxiyati va ahamiyatini tushuntirib borish;
- milliy istiqlol g'oyasi asosida jamiyat ma'naviyatini rivojlantirishga oid ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy yo'nalishlarda xotin-qizlar ishtirokini qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish;
- xotin-qizlarning siyosiy faolligini amalga oshirishga doir mahalliy talablarga asoslangan tadbirlar belgilash va mazkur tadbirlarning amalga oshirilishiga shart-sharoitlar yaratish;
- xotin-qizlarni jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy, ma'naviy o'zgarishlardan doimiy xabardor qilib berish;
- ilm-fan va texnika taraqqiyotida xotin-qizlarning faol ishtirokini targ'ib etib, uy bekaları va ayrim ishsiz ayollar faoliyatini kasanachilik, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirish nazarda tutiladi.

“Jamiyatdagi har qanday o'zgarish, eng avvalo, oila va ayol hayotiga ta'sir etadi, shu bois ayollarimiz jamiyatda yuz berayotgan har qanday voqea va hodisalarni ongli tahlil qila oladigan, o'tish davriga xos bo'lgan qiyinchiliklarni yenga oladigan, iqtisodda raqobatbardosh, ma'naviyati, huquqiy madaniyati yuksak, oila parvar, tadbirkor, rejali bo'lishi talab etiladi. Ayollarda bunday fazilatlarni shakllantirish muhimdir”⁴⁷.

Bugungi kunda hayotimizning qaysi soha va yo'nalishini olmaylik – bu davlat va jamiyat qurilishi (olmaylik) yoki ishlab chiqarish tarmoqlari bo'ladimi, fermerlik va tadbirkorlik, tibbiy, ta'lim-tarbiya fan va madaniyat, san'at bo'ladimi – ularning rivoji va samarasini oshirishda, yurtimizda xech kimdan kam bo'lmaydigan demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishda, xalqaro maydonda

⁴⁶ Ubaydullayeva R.A. Mustaqil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. - T. Fan, 2006, B. 7.

⁴⁷ Safayeva S. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlar. - T.: 2003, B. 5-6.

davlatimizning obro'-e'tiborini yuksaltirishda opa-singillarimizning katta hissa qo'shayotgani haqida ko'p gapirish mumkin.

“Xususan, ayollarimizning siyosiy – ijtimoiy hayotdagi o'rni va ta'siri ortib borayotganini davlat hokimiyatining barcha bo'g'indagi vakillik faollarida 1131 nafar xotin-qiz, jumladan, Oliy majlisda tarkibida 48 nafar senator va deputat faoliyat ko'rsatayotgani, qariyb 332 ming ayol siyosiy partiyalarning a'zosi sifatida o'z salohiyatini namoyon qilayotganini kuzatish qiyin emas”⁴⁸.

O'zbekiston Konstitusiyasida xotin-qizlarning siyosiy huquqlarini aniq belgilab berilgan bo'lsa, Oila kodeksida ularning oilaviy huquqlari, Fuqarolik kodeksida har bir insonning merosga vorislik va boshqa huquqlari, Mehnat kodeksida esa xotin-qizlar mehnatiga oid ijtimoiy imtiyozlar mustahkamlangan⁴⁹. Ta'kidlash lozimki, “Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida”gi Qonun, “Oila yili”, “Ayollar yili”, “Onalar va bolalar yili”, “Sog'lom avlod yili”, “Sihat solomatlik yili” davlat dasturlari, shuningdek, O'zbekiston Prezidentining “Ayollarning ijtimoiy himoya qilinishini kuchaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni va boshqa huquqiy-me'yoriy xujjatlarning qabul qilinishi va ularning amalga oshirilishi yurtimiz ayollari hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yurtimizda gender siyosatini to'g'ri qo'llagan holda, xotin-qizlar huquq va erkinliklarining tiklanishiga alohida e'tibor berib kelinayotganini xalqaro hamjamiyat ham e'tirof etmoqda.

Konstitusiyamizning 46-moddasida; “xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”,⁵⁰- deb belgilangan.

Respublika xotin-qizlar qo'mitasi mamlakatimizda ayollarning jamiyatda tutgan o'rnini, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim mavqega ega bo'lgan nufuzli jamoat tashkilotlardan biri sanaladi. Shuningdek, “Tadbirkor ayol” O'zbekiston ishbilarmon ayollar assosiasiyasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ayollarning siyosiy faolligini oshirish maqsadida tuzilgan

⁴⁸ Karimov A Demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish-mamlakatimiz taraqqiyotini asosiy me'zonidir. 19 – jild. -T.:O'zbekiston, 2011,B-271

⁴⁹ Yakubjanova Sh Xotin-qizlar faoliyati doimiy e'tiborda. // Xuquq va burj, 2009, 3-son, B.21.

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.-T.:O'zbekiston

nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati ham yuqoridagi fikrlarimizning yorqin dalilidir. Vazirliklar tomonidan “Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to’g’risida”gi Konvensiyada belgilangan vazifalar va uning mazmun-mohiyatini targ’ib qilish, shuningdek, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida davlat boshqaruv, xo’jalik organlari, jamoat birlashmalari va boshqa idoralar tomonidan amalga oshirilgan huquqiy targ’ibot tadbirlari umumlashtirib borilmoqda⁵¹.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 fevraldagi 112-farmoyishiga asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan inson huquqlariga rioya etilishini o’rganish bo’yicha o’tkazilayotgan yig’ilishlarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining ayollar kamsitilishining barcha turlariga barham berish masalasi bo’yicha O’zbekiston Respublikasining milliy harakat rejasi tasdiqlangan. Xozirgi kunda unda belgilangan tadbirlar manfaatdor vazirliklar va tashkilotlar tomonidan ijro etib kelinmoqda. Chunonchi, Adliya vazirligi ushbu rejaning ijrosi bo’yicha bir qancha ishlarni amalga oshirmoqda.

Jumladan, “Ekspluatasiya qilish maqsadida odamlar savdosiga qarshi kurashish choralarining kuchaytirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksiga o’zgartish va qo’shimcha kiritish to’g’risida”gi va “Odam savdosining oldini olish to’g’risida”gi Qonun loyihalari ishlab chiqildi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, inson huquqlariga oliy qadriyat sifatida qaralayotgan yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlash uchun barcha huquqiy asoslar, shart-sharoitlar mavjud. Jumladan, vakillik organlariga oid saylovlar qonunchilikdagi ayollarga imtiyozlar belgilangan. “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to’g’risida”gi Qonunning 22-moddasi 4-qismida xotin-qizlar soni siyosiy partiyalardan ko’rsatilagan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida 30 foizini tashkil etish lozimligi qayd yetilganini ham fikrimizni yaqqol isbotlaydi. Quvonarlisi

⁵¹ Yakubjanova Sh Xotin-qizlar faoliyati doimiy e’tiborda. // Xuquq va burj, 2009, 3-son, B.20.

shundaki, yurtimiz ayollari nafaqat yirik mutaxassis, balki senator yoki deputat, olim, rahbar sifatida mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilib kelmoqdalar⁵². Buning huquqiy asosi Konstitutsiyamizning 46-moddasida "Xotin-qizlar va yerkaklar teng huquqlidirlar", deya kafolatlangan.

Biz qurayotgan jamiyat fuqarolik jamiyatidir. Chunki jamiyat tarqqiyoti bugungi kunda shunday yuksaklikka ko'tarilganki, unda inson xuquqlari oliy vakdiryat sifatida ximoya qilinadi xox davlat tashkiloti, xox nodavlat tashkiloti bo'lsin barcha insitutlar, inson xaq xuquqlarini ta'minlash, shuningdek, xotin - qizlar kafalotlarini yanada mustaxkamlash borasida tinimsiz ish olib bormoqdalar.

Ayol xuquqlari xaqida gapirganda, ko'z o'ngimizda Kansitutsiyamiz nomoyon bo'ladi. Unda insonning yashash, shaxsiy daxlsizlik, sha'ni, qadr qimmat, shaxsiy xayotga aralashishdan ximoyalanish, so'z, e'tiqod yerkinligi, o'ziga tegishli xujatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan taminlash kabi xuquqlari, shuningdek, jamiyat va davlatni boshqarishda bevosita yoki o'z vakili orqali qatnashish kasaba uyishmalari, siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish, o'z xuquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida istalgan joyga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojat etish, mulkdor bo'lish, mexnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, ijtimoiy taminot, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, madaniyat yutuqlaridan foydalanish kabi xuquqlari belgilab qo'yilgan. Xar bir shaxsga tegishli bo'lgan yuqoridagi xuquqiy meyyorlari undan ortiq ko'deks va yuzlab qonunlar bilan tartibga solingan. Misol uchun⁵³, mexnat kodeksida ayrim toyifali xodimlar toifasidagi xodimlar tariqasida ayollarga oilaviy vazifalarni bajarish bilan bog'liq qo'shimcha kafolatlar belgilangan. Mexnat qonunchiligida ayollarga bir qancha imtiyozlar ko'zda tutilgani bois, onalarimiz barkomol avlodni voyaga yetqazishda kata imkoniyatlarga ega. Jumladan, ikki yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish ta'siridan xoli o'lgan ishga o'tkazish

⁵² Rajabova M. Ayolni ulug'lagan millat. // Xuquq va burj, 2009, 3-son, B.17-18.

⁵³ Rajabova M. Ayolni ulug'lagan millat. // Xuquq va burj, 2009, 3-son, B.18.

xamda tungi, ish vaqtidan mashqari va dam olish kunlarida ishlariga jalb qilish yoki xizmat safariga yuborishning cheklanganligi, shunengdek, xomiladorlik yoki tug'ish va bola ikki uch yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun tatil xamda bolani ovqatlantirish uchun tanafuslar berilish kabi normalarning mafjudligi xotin-qizlarimizga qonunlarimiz orqali yaratilgan imtiyozlardan dalolatdir.

Ish bilan band ayollarga qulay mexnat sharoitini yaratib berish ayollar xuquqlarini ximoya qilishning muxim yo'nalishlaridan biridir. Mexnat migrasiyasi, shu jumladan, doimiy ravishda rasmiy ishda ishlaydiganlarning yarmidan ortig'i noqulay sharoitlarda mexnat qiladi. Bunday salbiy omillar sirasiga ochiq osmon ostida ishlash yoki ishlab chiqarishning o'ziga xos vositalari bilan bog'liq noqulay xarorat rejimi; ish vaqtidan tashqari ishlash va tunda ishlash, dam olish va tushlik uchun tanafus qilmaslik; og'ir yuklarni tashish: chang, ifloslik, oddiy sanitariya shart-sharoitlarning yo'qligi kiradi.

Xotin- qizlar qo'mitasi ayollarga qulay mexnat sharoishi yaratib berish maqsadida tegishli vazirlik, jamoat tashkilotlari, joylardagi korxonalar bilan xamkorlikda ko'plab chora tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, joylardagi kasaba uyushmalari, mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish bo'limlari bilan birgalikda xususiy tadbirkorlar, ish beruvchilar o'rtasida seminarlar, uchrashuvlar o'tkazilyapti⁵⁴.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan amalga oshirayotgan barcha chora-tadbirla ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirishga, huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Bu yesa, o'z navbatida ayollarning turmush sharoitini yaxshilash, ularning baxtli hayot kechirishlari uchun muhim ahamiyat kasb yetadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustafqilligini qo'lga kiritishi munosabati bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida demakratlashtirish

⁵⁴ Akbarova F. Yuksak e'tibor namunasi. // Xuquq va burj, 2009, 3-son, B.20.

jarayonida tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu o'zgarishlarning markazida inson turibdi, uning huquq va erkinliklari muhofazasiga ustivor ahamiyat berilmoqda.

Ayniqsa ayollarning huquqlarini himoya qilish muomilasiga davlat alohida e'tibor qaratmoqda.

Asosiy qonunimizning 46-moddasida mustahkamlab qo'yilgan jinslaridan qat'iy nazar "Xotin-qizlar va erkaklarning huquqliligi" davlatning ayollar huquqlarini tan olish, ularga rioya etishi va ularni muhofaza qilish borasidagi konstitutsiyaviy majburiyati bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

O'zbekistonda ayollarning ahvolini yaxshilash va jamiyatda ularning rolini oshirish bo'yicha milliy harakat dasturi davlat amalga oshirayotgan eng muhim tadbirlar qatoriga kiradi⁵⁵.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni asosida "Sog'lom avlod uchun" nohukumat jamg'armasi tuzilishi ham ayollarning huquqlarini muhofaza qilishda muhim ahamiyatga egadir. Jamg'armaning maqsadi kelgusi avlod sog'lig'ini ta'minlashga hissa qo'shish, onalik va bolalikni himoya qilish, sog'lom va har tomonlama tarqqiy etgan avlodni tarbiyalashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirishdir. 1995 yil mart oyida Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat va jamiyat ko'rinishida ayollar rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Milliy xarakat dasturida ayollarning manfaatlarni hisobga oladigan konkred chora-tadbirlar ko'rsatib o'tilgan. 1995 yilda huquqlarini muhofaza qilishning milliy mexanizmida katta o'rin tutadigan inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili institutning amalga kiritilishi allar huquqlarini muhofaza qilish va genderga oid teng huquqlilikni ta'minlashga qaratilgan harakatlar ichida alohida ahamiyatga egadir.

Vakilga keng vakolatlar berib qo'yilgan. Aholining o'ta ijtimoiy zaif toifasi bo'lish ayollar va bolalar huquqlarini muhofaza qilish hollarining ko'payib borayotganligi mamlakatda inson huquqlari muhofazasi bo'yicha ombudsman

⁵⁵ Gartman I. Ayollar xuquqlarini muxofazasi jamiyat va davlatning burji xamda vazifalaridir. / Ayol xuquqi va erkinliklari.-T.:Adolat.2002.B.84.

xizmati organining ortib borayotganligidan dalolat beradi. Oliy Majlis devoni vakilining ma'lumotlariga qaraganda, Ombudsmanga qilingan murojatlarining 60 foizdan ortig'ini ayollarning murojatlari tashkil yetadi⁵⁶.

Inson huquqlari buzilishida albatta, huquqiy madaniyat darajasi muayyan o'rn tutadi. Ayollar boshiga tushadigan kulfatlar, huquqlarning buzilishi, asosan, ularning huquqiy bilimsizligi, ularning shaxsiy siyosiy va iqtisodiy huquqlarini bilmasliklari sababli sodir bo'ladi. "Ijtimoiy fikr" jamoachilik fikrni o'rganish markazning ma'lumotlariga qaraganda savolga tutilgan ayollarning 60,1 foizi o'z fuqarolik huquqlari to'g'risida g'ira-shira tasavvurga ega yekan. Savol-javoblar natijasida aniqlanishicha, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, shuningdek ayollar huquqlari to'g'risilagi xalqaro hujjatlarni yetarli darajada bilmas ekanlar.

Ayollarning huquqiy bilimlari darajasi pastligi ularni diskriminasiya qilishga imkoniyat yaratadi. Qonunlarni yaxshi biladigan ayolgina o'z huquqlarini dalil himoya qila oladi⁵⁷.

Huquqiy madaniyati past bo'lgan ayollarning o'z huquqlarini tegishli darajada himoya qilishlari muammo ekanligi barchaga ayon. Shunday yekan, hamma balo kerakli qonunlarning yo'qligida emas, balki huquqiy bilimsizlik natijasida amaldagi qonunlardan foydanishni bilmasligidadir. Bundan tashqari, jamoatchilik ongida saqlanib qolgan hurofiy tasavvurlar, ayollarga erkaklarga nisbatan pasroq nazar bilan qarash ayollar huquqlari holatiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Xotin-qizlarning teng huquqli bo'lishiga erishish yo'lida 1979 yil 8 dekabrda muhim qadam qo'yilgan edi. Shu kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assasiyasi xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyani qabul qildi. Konvensiya 30 ta moddadan iborat bo'lib, unda barcha xotin-qizlarning teng huquqlarini ta'minlashga

⁵⁶ Ayollar huquqlarini muxofazasi jamiyat va davlatning burji xamda vazifalaridir. / Ayol xuquqi va erkinliklari.- T.:Adolat.2002.B.85.

⁵⁷ Gartman I. Ayollar huquqlarini muxofazasi jamiyat va davlatning burji xamda vazifalaridir. / Ayol xuquqi va erkinliklari.-T.:Adolat.2002.B.86.

yo'naltirilgan xalqaro-huquqiy shakldagi tamoillari va choralari aniqlab berilgan. Ushbu Konvensiya moddalaridan birida (11-moddasi) "xotin-qizlarning band bo'lish sohasidagi huquqlari kamsitilishini bartaraf etish, ayni vaqtda erkaklar bilan ayollarning teng huquqlarini ta'minlash maqsadida ishtirokchi dalatlar barcha choralarni ko'radilar"⁵⁸, deb yozib qo'yilgan.

Bundan tashqari ayollar huquq va yerkinliklarini himoya qilish bo'yicha "Mehri" ayollar tashabbusi bilan, demokratik huquqiy davlat poydevorini yaratishda o'z bilimlari, ortirgan boy tajriba va imkoniyatlarini jalb etish maqsadida 1997 yilning noyabr oyida tashkil etilgan va Toshkent shahar Adliya Bosh boshqarmasining rasmiy ro'yhatidan o'tgan. Uning asosiy vazifalari "Ayollarning huquqi, reproduktiv salomatligi bo'yicha savodxonligi saviyasi va madaniyatini oshirish, ayol shaxsiyatini, g'ururi, qadr-qimmatini turli darajada mustaqil qaror qabul qilishi hamda barcha jabhalarda faol qatnashishi imkoniyatini yaratish, oila institutini barqarorlashtirish, uning ruhiy muhitini shakllantirish, ayol huquqini himoyalash, kerak bo'lganda unga ruhiy, tibbiy va huquqiy ko'mak berish, ayolning manaviy poydevorini mustahkamlash, ma'rifiy bilimini oshirish milliy qadriyatlarni mustahkamlashdan iborat"⁵⁹.

Har qanday davlat va jamiyat boshqaruvi muayyan qonun-qoidalar asosida olib boriladi.

Ammo barcha zamonlarda hamma ona shu umumiy qoidalar orasida ayollar hamda ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati xususida alohida yondoshuvlar mavjud bo'lgan. Ayol hamisha o'zi yashayotgan jamiyatning huquqiy asosi, faol subyekti sifatida jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida ishtirok etadi. Jamiyatda ayollarning teng huquqliligini ta'minlansa, ya'ni ularning erkaklar bilan teng holda o'z mamlakatining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ishtirok etishlariga yerishiladi, jamiyat va oila farovonligi o'sishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ayollarning huquqlarini himoya qilish muammosiga davlat alohida

⁵⁸ Ayollar huquqlari deskrinasiya qilinishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida BMT konvensiyasi. III-qism, 11-modda

⁵⁹ Ayol huquqi va erkinliklari.-T.:Adolat.2002.B.232.

e'tibor qaratmoqda. Demokratik o'zgarishlarning faol ishtirokchisi bo'lgan ayollarning konstitusiyaviy haq-huquqlarini to'liq himoya qilishga erishish, ularning ijtimoiy-huquqiy jihatidan qullab-quvvatlash vazifasi yurtboshimizning 2004 yil 25 mayda qabul qilingan "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitalari faoliyatini qo'llab quvvatlashi borasida"gi farmonida o'z aksini topgan. Zero, xar qanday mamlakatning demakratik xususiyatlarini ko'rsatuvchi sharoitlardan biri inson xuquq va yerkinliklariga qanday yondoshganligi xamda uning amalga oshirish uchun qandaq shart-sharoitlar yaratilganligi bilan belgilanadi.

Albatta, bunday siyosatni yanada kuchaytirish, uning samaradorligin oshirishda xotin-qizlarning mavqyeini, ularning ijtimoiy va siyosiy faoligini ham huquqiy, ham amaliy nuqtai nazardan yuksaltirish ana shunday muhim vazifalarimiz qatoriga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik barcha fuqarolarning, xususan, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faoligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratdi. Istiqlol sharofati bilan ayollar mamlakat hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etmoqda, ularning davlat va jamiyat tuzilishidagi maqomi va martabasi yuksalib bormoqda.

2.2. "Oila va jamiyat uyg'unligi" mavzusini o'qitishning pedagogik texnologiyasi

Demokratik islohotlar yo'liga qadam qo'ygan mustaqil O'zbekiston Respublikasiga o'qimishli, har tomonlama yetuk, barkamol avlodlar kerak. Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan darsga zamonaviy asosda yondoshishini talab etadi.

Shaxsni tarbilash – Respublika ta'lim xodimlari zimmasiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklaydi. Shunday ekan, bu vazifani amalga oshirish jarayoni o'quvchilarni o'qitishga yangicha yondoshishga undaydi.

O'qituvchilar o'z kasbiga, o'quvchilarga talabchanlikni oshirishi, o'z ustida ko'proq ishlashi, zamonaviy pedagogik texnologiyalari dars jarayonida samarali

qo'llash, darsni hozirgi zamon talablari asosida o'tishi talab etiladi. Bugungi kunda ta'lim tizimida pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almashtirish, zamonaviy maktabga davr talablari asosida yondoshish dars jarayoniga yangicha usullarni tadbqiq etish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash eng asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda.

Pedagogik texnologiyaning dars samaradorligini oshirish tamoiyllari quyidagilar hisoblanadi:

- sodda va oson
- esda qolarli
- vaqtdan yutiladi
- qiziqarli bo'ladi
- mustaqil fikrlashni o'rgatadi
- xotirani yaxshilaydi
- izlanishga chorlaydi
- o'quvchilarni o'z ustida ishlashga da'vat etadi.

Kasb-hunar kollejlarining huquqshunoslik bo'limida o'tadigan 80 daqiqalik "Oila va jamiyat uyg'unligida ayolning o'rni" mavzusidagi dars mashg'ulotining pedagogik texnologiyaga asoslangan loyihasi quyidagicha:

Mavzu: "Oila va jamiyat uyg'unligida ayolning o'rni".

Darsning ta'limiy **maqsadi;** o'quvchilarning oila va jamiyat to'g'risidagi bilimlarni va qarashini kengaytirish. Erkinlik, huquq, inson, taraqqiyot tushunchalarini shakllantirish.

Darsning rivojlantirish **maqsadi;**

O'quvchilarning bilimlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali boyitish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutq va muloqat madaniyatini rivojlantirish.

Dars turi; ma'ruza, amaliyot, debat, suhbat.

Kutilayotgan natijalar;

a) o'qituvchidan; yangi texnologik usullarni qo'llash; mavzu bo'yicha maqsadni tushuntirish; o'quvchilarda qiziqish uyg'otish; o'quvchilar bilimini shakllantirish.

Darsning texnologik kartasi.	
-------------------------------------	--

b) talablar; oila va jamiyat uyg'unligida ayolning o'rni va roli haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; ayol huquq va erkinliklari hususida qilingan qonunlarni sanab bera oladilar; mavzuga taaluqli ma'lumotlarni qiziqish bilan qabul qiladilar.

Mashg'ulotning bosqichlari		Vaqt	Mashg'ulotning mazmuni	Ta'lim texnolo'giyasi yelementlari		
				Metod	Shakl	Vosita
Kirish		5	Sinf tozaligini nazorat qilish	Suxbat	Jamoa	Doska bo'r
Asosiy qisim	O'tilgan mavzu	10	"Oila va jamiyat uyg'unligi" mavzusi "Baxtli tasodif" usuli asosida so'rash	Aqliy xujum	Induktiv	Savolli kartochkalar
		5	O'tilgan mavzuni xulosalash.O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda o'tilgan mavzu yuzasidan xulosachikaradi	Suxbat	Jamoa	
	Yangi mavzu	20	"Oila va jamiyat uyg'unligida ayolning o'rni" mavzusini o'qituvchi plakat, rasmlar, tablisa xamda disklardan foydalanib tushintirish	Maruza	Jamoa	Doska tablisa plakat kompyuter
		20	Darsni mustaxkamlash."Bilmagan,bilimni xoxlayman.bilib oldim" usuli asosida darsni tashkil etish.	Interfaol	Jamoa	Doska bo'r
		10	O'quvchilar bilimini charxlash.test savollari.	O'yinli	Induktiv	Doska
Yakuniy qisim		10	O'quvchi bajarilgan ishlarni baxolaydi va umumlashtiradi.Faol o'quvchilarni rag'batlantiradi,o'tilgan mashg'ulot bo'yicha o'quvchilarning fuqr muloxazalarini tinglaydi. Unga topshiriq beradi.	Muxokama	Jamoa	

2. Asosiy qism.

2.1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

“Oila va jamiyat uyg'unligi” mavzusi yuzasidan savol-javoblar o'tkazish (Baxtli tasodif usuli asosida).

Buning uchun qog'ozdan kartochka tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2-3 tadan savol qo'yiladi. Faqat bitta kartochkaga “yutuq “5” baho” deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga tushsa, “Baxtli tasodif” sohibi hisoblanadi.

- Savollar -

Baxtli tasodif – 1.

1. Oila deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyat nima?

Baxtli tasodif – 2.

1. Oila nimaning negizi?
2. Nechanchi yili “oila yili” deb e'lon qilingan?

Baxtli tasodif – 3.

1. Xalqaro oila kuni qachon nishonlanadi?
2. Farobiy qanday jamiyatni orzu qilgan?

Baxtli tasodif – 4.

1. Har yil yurtimizda qachon nikoh qayd etiladi?
2. Ibn Sino jamiyatga qanday ta'rif bergan?

Baxtli tasodif – 5.

1. “Oila” risolasi muallifi.
2. Konstitutsiyaning 63-moddasi nima haqida?

Baxtli tasodif – 6.

1. O'zbekiston yosh oilalarga qanday imtiyozlar bor?
2. Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz?

Baxtli tasodif – 7.

1. “Yutuq “5” baho”.

“Bilaman. Bilimni hohlayman. Bilib oldim.” usuli o’quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Buning uchun o’qituvchi doskani 3 qismga bo’ladi.

1 – qismga “Bilaman”

2 – qismga “Bilimni hohlayman”

3 – qismga “Bilib oldim” deb yozadi.

Keyin o’quvchilarga o’qituvchi murojaat qilib, kim oila, jamiyat va ayol ularning o’zaro munosabati haqida nima bilishini so’raydi va o’quvchilar fikrini “Bilaman” ustinigaga yoziladi.

Sinfda fikrlar tugagandan keyin o’quvchilarga yana murojaat qilib mavzu yuzasidan yana nimalar bilishini hohlashlarini so’raydi. O’quvchilar bergan savollarni doskaning “Bilishni hohlayman” ustinigaga yozadi. O’quvchilar savollar tugagandan keyin o’qituvchi mavzu haqida ma’lumotlar yozilgan, oldindan tayyorlangan matnlarni sinfga tarqatib chiqadi. O’quvchilar matnlar bilan tanishib chiqqanlaridan keyin fikrlashga o’tadilar, yangi ma’lumotlarni bir-birlari bilan o’rtoqlashadilar. O’qituvchi o’quvchilardan oila jamiyat uyg’unligida ayolning o’rni va uning huquq va erkinliklari haqida yana qanday yangi ma’lumotlarga ega bo’lganliklarini so’raydi va “Bilib oldim” ustinigaga yozadi. Keyin uchala ustunni umumlashtirib, birgalikda xulosa qilinadi.

Mavzu bo’yicha savollar:

1. Jamiyatning negizi bu?

A – tashkilot

B – oila

S – davlat

2. Konstitutsiyaning qaysi bobida oila jamiyatning asosiy bo’g’ini ekanligi belgilab qo’yilgan?

A – 14-bobida

B – 10-bobida

S – 12-bobida

3. Yurtboshimiz 1998 yilni qanday yil deb e’lon qilgan edi?

A – “Ayollar yil”

B – “Obod mahalla yili”

S – “Oila yili”

4. Mamlakatimizda 1999 yil qanday yil deb e’lon qilingan?

A-“Sog’lom avlod yili”

B-“Ayollar yili”

S-“Ona va bola yili”

5. Abdulla Avloniyning ahloq to’g’risidagi kitobining nomi?

A-“Turkiy Guliston yoxud ahloq”

B-Tarbiya”

S-“Oila – jamiyatning dur-u gavhari”

6. Dalat hokimiyatining barcha bo’g’inidagi vakillik organlarida qancha xotin – qizlar faoliyat ko’rsatmoqda.

A-1200 nafar

B-1131 nafar

S-1150 nafar.

7. Oliy majlisimiz tarkibida necha nafar senator va deputat ayollar faoliyat yuritmoqdalar?

A-40 nafar

B-45 nafar

S-48 nafar.

8. O’zbekiston Respublikasi qachon “Vena dekloratsiyasi” ga qo’shildi?

A-1993 yil

B-1995 yil

S-1992 yil.

9. BMT ning “Ayollarga nisbatan kamsitilishning har qanday shakllariga barham berish to’g’risida” gi Konvensiyasi qachon ratifikatsiyasi qilindi.

A-1996 yil

B-1995 yil

S-1994 yil.

10. “Odam savdosiga qarshi kurashish to’g’risida” gi qonun qachon qabul qilindi?

A-2007 yilda

B-2005 yilda

S-2008 yilda.

11. 2012 yil qanday yili deb e'lon qilindi?

A-“mustahkam oila yili”

B-“Yoshlar yili”

S-“Sog'lom avlod yili”

12. Prezident Islom Karimovning “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobi qachon nashrdan chiqdi?

A-2010 yil sentyabr

B-2011 yil avgust

S-2012 yil yanvar

13. Bugungi kunda jamiyat va davlat hayotidagi fidokora mehnatlari uchun necha nafar ayol “O'zbekiston Qahramoni” degan unvonga muvassaf bo'ldi?

A-15 nafar

B-10 nafar

S-13 nafar

14. Prezidentimiz tomonidan yurtimiz ayollarining davlat va jamiyat qurishilishidagi rolini kuchayishiga bag'ishlangan maxsus qarori qachon qabul qilingan?

A- 1995-yil 2-marta

B- 1997-yil 10-marta

C- 1999-yil 20-yanvarda

15. “O'zbekiston xotin-qizlari qo'mitasi faoliyatini qo'llab quvatlash borasidagi qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida”gi farmoni qachon qabul qilindi?

A- 2007-yil 5-martda

B- 2004-yil 25-mayda

C- 20002-yil 10-aprelda

16. Senat a'zolari etib saylanganlarning necha foizini ayollar tashkil etadi?

A-20 foiz

B-25 foiz

C-15 foiz

17. Hozirgi kunda qoninchilik palatasida xotin-qizlar soni necha foizni tashkil etadi?

A-18 foiz

B-24 foiz

C-21 foiz

Yakuniy qism

O'qituvchi o'quvchilarni baholaydi.

O'quvchilar bajargan ishlar umumlashtirib, faol o'quvchilar rag'batlantiriladi. Mavzu bo'yicha o'quvchilarning fikr mulohazalari tinglanib, umumiy xulosa chiqariladi.

XULOSA

Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Shu ma'noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi. Ijtimoiy munosabatlari o'zgartiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma'naviy-ahloqiy muhitning sog'lomligi ko'p jihatdan oilaviy madaniyatga bog'liq. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Oilada er va xotinning mavqei, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlichadir. Mamlakatimiz milliy mustaqillik yillalrida ma'naviy sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, avvalo, oila qadriyatlarini, eng ilg'or an'alarini tiklashga qaratilgandir. Oila va ayol muqaddasligi O'zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda, Qur'on Karim oyatlarida ona va ayolning muqaddasligi to'g'risidagi g'oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishida muhim ahamiyatga ega.

Ulug' mutaffakirlar jamiyatning madaniy darajasi ayolning jamiyat va oiladagi ahvoli, mavqei bilan belgilashni alohida ta'kidlanganlar. Sog'lom, barkamol avlod tarbiyasi ko'p jihatdan ayolning ma'naviy salohiyati, bilimi, uddabironligi va erkinligiga bog'liqdir.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqei va rolini kuchaytirishga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi birinchi navbatda xotin-qizlarga va ular tarbiya berayotgan farzandlarga ulkan imkoniyatlar ufqlarini ochib berdi. Bugun yurtimizda istiqlol sharofati bilan ayollar yuksak darajada e'zozlanayotgani, farzandlarimizning barkamol insonlar bo'lib voyaga etishga katta e'tibor berilayotganiga barchamiz guvohmiz.

Zero, sog'lom demokratik jamiyatni yaratishning muhim shartlaridan biri, avvalo, har jihatdan sog'lom, manaviyati yuksak, mustaqil yangi avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Chunki har bir ayol o'z farzandalri timsolida ezgu orzu-

umidlarining ro'yobini, porloq kelajakni tasavvur qiladi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek; "Bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynashini inkor etib bo'lmaydi. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi".

Hozirgi vaqtda jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarida ayollarimizning tutgan o'rni va mavqei har qanchonchidan yuksaldi. Ayolning aqliy zakovati va salohiyatini yanada yuksaltirish, ularning ma'rifatparvarligidan oqilona foydalanish – jamiyat taraqqiyotini yangi-yangi marralarga olib chiqishi shubhasizdir. Ayolning oiladagi o'rni mustahkam bo'lsa, jamiyatdagi mavqei yuqori bo'ladi. Hozirgi kunda ayollar davlat sektorlarida, nodavlat tashkilotlarda faoliyat olib borib jammiyatni ravnaqiga katta hissa qo'shib kelmoqdalar. Ayollar avvalo ona va oila bekasidir. Oila esa kishilik jamiyatining poydevoridir. Jamiyat hayotida ijtimoiy faol bo'lgan ayol oilada ham o'z o'rni va nufuziga ega bo'ladi. Ijtimoiy faol ayol ma'rifatli ziyoli bo'lganligi uchun farzandlarida zukkolik, idroklilik, hislatlarini tarbiyalaydi. Tadbirkorlik, ishbilarmonlik jihatlarini shakllantiradi.

Ma'lumki, har qanday davlat va jamiyat boshqaruvi muayyan qonun-qoidalar asosida olib boriladi. Ammo barcha zamonlarda ham ana shu umumiy qoidalar orasida ayollar hamda ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati hususida alohida yondoshuvlar mavjud bo'lgan. Ayol hamisha o'zi yashayotgan jamiyatning haqiqiy a'zosi, faol subyekti sifatida jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok yetadi.

Jamiyatda ayollarning teng huquqliligi ta'minlansa, ya'ni ularning erkaklar bilan teng holda o'z mamlakatining siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ishtirok etishlariga erishiladi, jamiyat va oila faravonligi o'sishga xizmat qiladi. Bizning jamiyatimizda xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirishga katta e'tibor berilayotganligi mamlakatda siyosiy, huquqiy va ahloqiy normalarning ustivorligidan dalolatdir. Qonun asosida ayollar ma'lumotli bo'lishi va mehnat qilishda erkaklar bilan teng huquqlarga egadir, kasbini va oilaviy

majburiyatlarini birga qo'shib olib borayotgan ayollarning holatini tartibga olish bilan bog'liq huquqiy normalar qabul qilindi. Mamlakatimizda xotin-qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish, ularni turmush madaniyatini yanada yuksaltirish va manfaatlarini himoya qilish borasida 30 dan ortiq me'yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ayollarning faoliyatiga doir huquqiy – normativ hujjatlarining qabul qilinishi – ular ijtimoiy-siyosiy faolligni oshirishning huquqiy kafoloti sifatida jamiyatda xotin-qizlarning o'rnini belgilab bermoqda. Shu bilan bir qatorda xotin-qizlarning davlat boshqaruvi tizimida, ijro organlarida, nodavlat notijorat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida ko'proq faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlashga yerishish, xotin-qizlarning huquqiy savodhonligini oshirish yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar ko'lamini kengaytirish bevosita jamiyatning ijtimoiy-siyosiy rivojiga xizmat qiladi. Umuman olganda, xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirishda davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlar hamda ularning amalda qo'llanilishi bilan bir qatorda jamiyat ma'naviyatining shakllanganlik darajasi o'z navbatida xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyati jamiyat ma'naviyatining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa milliy taraqqiyotning optimal rivojini ta'minlashda juda muhimdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki,


- **birinchidan;** jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi.
- **ikkinchidan;** ulug' mutaffakirlarning ta'kidlashicha, jamiyatning madaniy darajasi ayolning jamiyat va oiladagi ahvoli, mavqei bilan belgilanadi.
- **uchinchidan;** ayolning mavyei va haq-huquqlari kamsitilgan jamiyat-taraqqiy etgan jamiyat bo'la olmaydi.
- **to'rtinchidan;** mamlakatimizda xotin-qizlarning mavqeini oshirish, ularning ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlash, onalik va bolalik manfaatlarini muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.
- **beshinchidan;** Konstitusiyaning 46-moddasida “xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” belgilab qo'yilgan.


Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.:O'zbekiston.2011.40 bet.
- 2.Karimov I.A.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.- T.:O'zbekiston.2011.432 bet.
3. Karmov I.A.O'zbekistoning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.:O'zbekiston. 1992.415 bet.
- 4.Karimov I.A.Oila farovonligi – millat farovonligi // Xafsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida. 6-jild.- T.: O'zbekiston. 1998. 400 bet.
- 5.Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.:O'zbekiston. 1998. 686 bet.
- 6.Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston. 1999.382 bet.
- 7.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O'zbekiston. 1999.352 bet.
- 8.Karimov I.A.Barkomol avlod orzusi. – T.: Sharq. 1999.248 bet.
- 9.I Karimov Yuksak manaviyat yengilmas kuch.-T: manaviyat .2008.176 bet.
- 10.Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish,mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko tarilish sari.18-jild.-T;.O'zbekiston.2010.248 bet.
- 11.Karimov I.A Demokratik isloxatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish-mamlakatimiz taraqqiyotini asosiy me'zonidir. 19 – jild. - T.:O'zbekiston. 2011.292 bet.
12. Ayollar xuquqlari deskrinasiya qilinishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida BMT konvensiyasi. III-qism, 11-modda.
- 13.1998 yil – oila yili.- T.: O'zbekiston. B.62 bet.
- 14.Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill kitobida.-T.:Adolat.1992.B.64 bet.
15. Abdurauf Fitrat. Oila. T.: Ma'naviyat. 1998.125 bet.
- 16.Barkamol avlod orzusi / Tuzuvchilar Sh.Qurbonov. H.Saidov, R.Axmedinov. -:. Sharq.1999.248 bet.
- 17.Milliy istiqlol g'oyalarining amal qilish tamoillari – T:. yangi asr avlodi. 2001. 220 bet.

- 18.** I Gartman. Ayollar xuquqlarini muxofazasi jamiyat va davlatning burji xamda vazifalaridir. / Ayol xuquqi va erkinliklari.-T.:Adolat.2002.86 bet.
- 19.** Entoni Giddens. Sosiologiya: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma, Ilmiy muharrirlar: A.Begmatov va M.Bekmurodov, - T.: Sharq 2002.848 bet.
- 20.** Ayol xuquqi va erkinliklari.-T.:Adolat.2002.234 bet.
- 21.** Yusupov E.Yusupov O'.Oila - manaviyat bulog'i.-T.:2003.129 bet.
- 22.**Safayeva S Ayollar masalasi:umumijtimoiy va milliy jihatlar.-T.:2003.184 bet.
- 23.** O'zbekiston xotin –qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab –quvvqylash borasidagi qo'shimcha shora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.//Xalq so'zi,2004yil,27may22.
- 24.**Tojixonov U, va boshqalar. O'zbekiston Respublikasiining Konstitusiyaviy huquqi. – T.: Adolat. 2004.749 bet.
- 25.**O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti.- T.:Navro'z.2005.367 bet.
- 26.**Ubaydullayeva R.A.Mustaqil O'zbekiston:ayol,oila va jamiyat.-T.Fan.2006.136 bet.
- 27.**Abdullayev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: “Sharq”. 2006. 460 bet.
- 28.**O.Safarov. M.Maxmudov .Oila ma'naviyati .- T.:2009.160 bet.
- 29.**Ma'naviyat asosiy tushunchalar izoxli lug'at. G'afur G'ulom nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent .2009.760 bet.
- 30.** B. Ochilova. Milliy – ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlr va vorisiylik. - T.: “Istiqlol”. 2009.232 bet.
- 31.**Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda oilaning o'rni. / Tillayeva G.Oila va inson komoloti. –T.: Falsafa va huquq instituti noshirlik bo'limi. 2011. 104 bet.
- 32.**Tillayeva G. Oila va inson kamolati.-T.:2011.104 bet.
- 33.**Jasanova S.Ayollar ijtimoiy faolligini oshirishning shaxs barkamollashuvidagi ahamiyati.// Respulika ilmiy amaliy konfrensiya materiallari.2011yil.14mar.631bet.
- 34.**Sharq yulduzi 1992 , 10 son.

- 35.S. Inomova Xotin –qizlar tashkiloti ;istiqboldagi rejalar.//Oila,2004yil,1-son.
- 36.Odilova M, Oilada murosayu madora // Oila, 2004, 1-son.
- 37.Botirova Z. Barkamollik garovi//oila 2004yil,1-son.
- 38.Dehqonova D. Ayollarga munosabat ijtimoiy taraqiyot va fuqarolik jamiyati belgisidir.// Fuqarolik jamiyati, 2007yil,2-son.
- 39.Sobirova D. Ayollarning barkamol avladni tarbiyalashdagi o'rni.//Tarbiya,2008,6-son.
- 40.Xalilova M. Oila va jamiyat // Ta'lim tizimida ijtimoiy – gumanitar fanlar. 2008,4 – son.
- 41.Xotin-qizlar faoliyati doimiy e'tiborda. // Xuquq va burj, 2009, 3-son.
- 42.M Rajabova. Ayolni ulug`lagan millat. // Xuquq va burj, 2009, 3-son.
- 43.Akbarova F. Yuksak e'tibor namunasi. // Xuquq va burj, 2009, 3-son.
- 44.Yakubjanova Sh Xotin-qizlar faoliyati doimiy e'tiborda. // Xuquq va burj, 2009, 3-son.
- 45.Toliboyeva N. Xotin - qizlar: ijtimoiy faollik omillari. // Jamiyat va boshqaruv, 2010, 3-son.
46. Huseynova A, Kenjayeva X. Mahallada ayollar ijtimoiy faolligi // Jaimyat va boshqaruv, 2011, 1-son.
47. Nishonova N.Xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirishda qonunlarning o'rni.falsafa va huquq,2011, 2-son.
48. Qodirova O'.Jamiyat va davlat muhofazasida.//Qalqon,2011, 9-son.





**Oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy,
ma'naviy munosabatlariga asoslangan
ijtimoiy birligi.**

**Tabiiy
munosabat**

**er-xotinlik munosabatlari,
bola ko'rish**

**Iqtisodiy
munosabatlar**

**mulkiy munosabatlar: uy-
ro'zg'or, hovli joyi-kichik vatan**

**Huquiy
munosabatlar**

**Nikohni davlat yo'li bilan qayd
etish**

O'zbekistonda oila bir qator vazifalarni bajaradi:



- **Tarbiyaviy vazifa** – yosh avlodni ijtimoiylashtirish, jamiyatning madaniyatini rivojlantirish;
- **Ho'jalik maishiy vazifa** – jamiyat a'zolarining jismoniy sog'ligini saqlash, bolalar va qariyalarga mehribonlik;
- **Iqtisodiy vazifa** – bir oila a'zolariga ikkinchi oila a'zolari uchun moddiy mablag' olish, voyaga ctmagan va mchnatga layoqatsiz oila a'zolarini iqtisodiy qo'llash;
- **Birlamchi ijtimoiy nazorat muhiti** – hayot faoliyatini turli muhitda oila a'zolarining xulq-atvorini axloqiy tartibga solish, shuningdok, er-xotin, ota-ona va bola, o'rta va katta avlod o'rtasida mas'uliyat va majburiyatlarning tartibga solish;
- **Ma'naviy muloqot** – oila a'zolari shaxsiyatlarining rivojlanishi, o'zaro ma'naviy kamol topishi;
- **Ijtimoiy mavqe** – oila a'zolarini ma'lum bir ijtimoiy mavqeni taqdim qilish, ijtimoiy tarkibni qayta ishlash;
- **Hordiq chiqarish** – samarali dam olishni tashkillash, dunyoqarashlar, ehtiyojlarni o'zaro rivojlanishi;
- **Hissiyot** – ruhiy himoya, his-tuyg'uni qo'llab-quvvatlash, shaxslarni emotsional barqarorligi.

**Har bir oilaning
jamiyatda tutgan
o'rni va
imkoniyatlari
qanday
bo'lishidan qat'iy
nazar, o'ziga
yarasha
vazifalari bor:**

**Farzand orttirish - unga ma'naviy va
jismoniy ozuqa berish, hayotda
to'g'ri yo'l ko'rsatish**

**Farzandning fazilatini va
istedodlarini ardoqlash, intilishlarini
amalga oshirish**

**Farzandlarning nomaqbul
yo'nalishlarga berilishi va shunday
istaklarini yo'qotish va boshqalar.**

Bakalavr darajasini olish uchun taqdim etilgan Murodova komilaning “Milliy istiqlol g’oyasi, xuquq va ma’naviyat asoslari yo’nalishi” bo’yicha” Oila va jamiyat uyg’unligida ayollarning o’rni mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi.

REZYUMESI

Tayanch so’zlar: Oilada ayolning o’rni, oila, oila asoslari, oila funksiyalari, oilaning axloqiy tamoyillari, jamiyat, fuqoralik jamiati, manaviylik, axloqiylik.

Tadqiqot ob’ekti: Mazkur bitiruv malakaviy ishining ob’ekti oila va jamiyat o’yg’unligida ayollar faolligining ijtimoiy, siyosiy iqtisodiy soxalari bilan bog’liqligi qilib belgilandi.

Ishning maqsadi: mavzuni taxlil etish jarayonida oila va jamiyat o’yg’unligida ayollarning o’rni, mavqiyi asaloxyati bilimi, Vatan, jamiyat va oila oldidagi burji va masuliyatini ijtimoiy, siyosiy taxlil etish mazkur malakaviy bitiruv ishining asosiy maqsadi qilib olingan.

Tadqiqot metodi: tarixiylik, mantiqiylik, dialektika, ilmiylik kabi falsafiy uslublardan shuningdek analiz, sintez, qiyoslash, xulosa chiqarish usullaridan foydalanildi.

Amaliy ahamiyati: BMI da ilgari surilgan g’oyalar va chiqarilgan nazariy xulosalar Mustaxkam oila davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan targ’ibot tashvig’ot ishlarida keng miqiyosda foydalanishni kuzda tutilgan.

Qo’llash sohasi: Mazkur tadqiqot ishidan umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus kasb-xunar kolleji va oliy ta’lim muassasalari, madaniy-marifiy ish bilan shug’ullanadigan muassasa va tasdhkelotlar foaliyatida foydalanish mumkin.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунлари ҳам инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро ҳужжатлар сингари эркаклар билан хотин-қизлар ҳуқуқларининг тенглигини мустаҳкамлайди.



Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 18-моддаси барча фуқароларнинг бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенглигини назарда тутди.